جديد

2026-yil 11-sentyabr
№ 37 (141)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

OLIMLAR ALPOMISHI



G‘ozi Olim “Alpomish” dostonini yozib olish va o‘rganish bo‘yicha birinchilardan bo‘lib ma’naviy jasorat ko‘rsatgan edi. O‘zi ham qahramonlarcha faoliyat yuritdi. Afsuski, Surhayil maston kabilar uni mahv etdi.

(7-sahifada o‘qing).

YETTIKUNLIK

DADIL QADAMLAR

O‘tgan hafta O‘zbekiston ichki va tashqi siyosatida miqyosi va ahamiyati bo‘yicha g‘oyat boy, strategik jihatdan muhim voqealar bilan yodda qoldi.

Mamlakat hayotida bir vaqtning o‘zida inson kapitalini rivojlantirish, tibbiyot va ta’limda chuqur islohotlar, kreativ iqtisodiyot va madaniy diplomatiya, shuningdek, Yevropa, Xitoy va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash yo‘nalishida tarixiy qadamlar qo‘yildi.



SAMARQAND – XALQARO YOSHLAR ANJUMANI MEZBONI

Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning XII Yosh parlament a’zolari butunjahon konferensiyasi dunyodagi keskin ziddiyatlar fonida eng muhim global voqeliklardan biriga aylandi. Global beqarorlik va urush o‘choqlari ko‘paygan bir paytda o‘tkazilgan ushbu anjuman kun tartibiga “Notinch davrlarda barcha uchun inson huquqlari, adolat va qadr-qimmatni tiklash” mavzusining qo‘yilgani muhim siyosiy ma’noga ega.

Siyosiy mojarolar hududida 500 milliondan ortiq bolalar va yoshlar yashayotgani, millionlab qizlar ta’limdan mahrumligi umumbashariy inqirozdir. Davlatimiz rahbarining konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida mana shu o‘tkir muammolarga e’tibor qaratildi. Bu bejiz emas. Salkam 40 millionlik O‘zbekiston aholisining 56 foizini yoshlar tashkil etadi. Ular sifatli ta’lim olsa, zamonaviy kasb va texnologiyalarni egallasa, mustaqil fikrlasa va jamiyat hayotida faol bo‘lsa, shundagina bu demografik imkoniyat katta taraqqiyot resursiga aylanadi. Shu ma’noda yoshlar uchun kiritilayotgan har bir investitsiya, aslida, mamlakatning ertangi raqobatbardoshligiga kiritilayotgan investitsiyadir. Bugun yosh qizlar uchun ham imkoniyatlar doirasi kengaymoqda. Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi kabi ilgari qizlar kamroq ko‘rinadigan sohalarga yangi avlod vakillari dadil kirib kelmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimi yaratilgani sababli bugungi kunda yosh tadbirkorlar ulushi 35 foizga yetdi, xorijdagi TOP-100 oliygohlarda 3,5 mingdan ortiq yoshlarimiz tahsil olmoqda. Bu minglab yoshlarning dunyoning eng kuchli akademik muhitida bilim va tajriba olayotganini anglatadi. Keyingi muhim masala – bu bilimni O‘zbekiston taraqqiyoti bilan bog‘lash. Xorijda o‘qiyotgan yoshlar bilan muntazam aloqada bo‘lish, ularni mamlakatdagi loyihalar, ilmiy markazlar, davlat idoralari va xususiy sektor bilan bog‘lash orqali juda katta intellektual tarmoq yaratish mumkin. O‘zbekiston BMTning “Yoshlar – 2030” strategiyasini amalga oshirayotgan TOP-10 davlat qatoriga kirgani va Global yoshlar taraqqiyoti indeksida eng tez rivojlanayotgan mamlakat deb topilgani amaliy islohotlar mahsulidir.

Yana bir mulohaza. O‘zbekistondagi o‘zgarishlarning eng muhim jihatlaridan biri – yoshlar bilan muloqot formati o‘zgargani. Bugun yoshlar faqat tayyor qarorni eshitadigan auditoriya emas. Ularning muammosi o‘rganiladi, tashabbusi muhokama qilinadi, ayrim takliflari davlat dasturlari va qonunchilik tashabbuslariga aylanmoqda. Yoshlar parlamentlari ham shu jarayonning bir qismidir. 2024-yilgi saylovlarda 200 ga yaqin yoshning vakillik organlari a’zosi etib saylangani muhim ishora. Demak, endigi vazifa bu ishonchni natija bilan oqlash. Anjuman yakunida qabul qilingan “Samarqand rezolyutsiyasi” hamda kelgusi yili o‘tkaziladigan “Avlodlar muloqoti” xalqaro kongressi O‘zbekistonning global yoshlar kun tartibini belgilovchi markazga aylanayotganini ko‘rsatadi.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNNING SHE’RI

Abdulla A’ZAM,
akademik

NIDO

Odamzod qirilib ketmas. Yo‘q! Aslo!
Yaratgan bermishdir unga ong va qalb.
Adashar, qoqilar, yiqilar, ammo
Olajak es-hushin bir kuni tiklab.

Odamzod qirilib ketmas. Yo‘q! Aslo!
Yo‘qolib ketmagay iymon va vijdon,
Aksar unutsa-da, ko‘pincha hatto
Muzaffar bo‘lsa-da la’nati Shayton.

Odamzod qirilib ketmas. Yo‘q! Aslo!
Qayta kelaverar yangi Tomas Mor.
Behbudiy boshini tanidan judo
Qilsa-da xoinlar, basir Xudo bor.

Odamzod qirilib ketmas. Yo‘q! Aslo!
Tug‘ilajak yangi Umari Odil,
Navoiy singari xalqparvar daho,
Nafsga qul bo‘lmagan mujtahid oqil.

“Odamzod qirilib ketmas. Yo‘q! Aslo!”–
Deyman-u, hasratli o‘yga tolaman:
Nahotki, aqlidan ozgusi dunyo,
Nahot, xalq bo‘lmagay johil olomon?[1]

Odamzod qirilib ketmas. Yo‘q! Aslo!
Faqat buning sharti bor, ey odamzot,
Olamni batamom bosmasdan balo,
Eslab tur, o‘limdan topmassan najot.

Odamzod qirilib ketmas. Yo‘q! Aslo!
Yaratgandan tuhfa e’joziy ko‘ngli.
Misoli bir “ka’si anvorul xudo” [2]
Va unda aks etar O‘zin jamoli!

[1] *Abdulla Oripov iborasi*
[2] *Alisher Navoiy konsepsiyasi*

ILM YO‘LI

OG‘U VA DORU



O‘zFA Bioorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nurxo‘ja MUHAMMADOV bilan suhbat

TALABI ILM

Biz uchun ilm izlab yurt kezish ulug‘ ajdodlarimizdan, xususan, jadid bobolarimizdan meros. Bugun bu jarayon davlatimiz tomonidan tizimli tashkil etilmoqda. Masalan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan yosh olimlarning xorijdagi nufuzli dargohlarda amaliyot o‘tashi muntazam yo‘lga qo‘yilgan. Nomzodlar ochiq, shaffof, adolatli va sog‘lom raqobat asosida tanlab olinadi.

Men 2025-yilda Vengriyaning Debresen universitetida tashkil etilgan ilmiy amaliyot tanlovida g‘olib bo‘ldim. Joriy yilning 16-fevralidan 30-martigacha davom etgan amaliyotda turli ilmiy va pedagogik muassasalardan 14 nafar o‘zbekistonlik ishtirok etdik.

(Davomi 3-sahifada).

FAKT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev elektrotexnika sanoatini yangi bosqichga olib chiqish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva hozirgi lavozimi bilan o‘rindoshlik asosida Toshkent xalqaro moliya markazi boshqaruvchisi lavozimiga tayinlandi.

10-sentyabrdan Xitoydan olib kelingan “CRRC-Dalian” tezyurar elektropoyezdi ilk bor Toshkent–Andijon–Toshkent yo‘nalishida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

29-sentyabrdan 2-oktyabrga qadar O‘zbekistonda I Markaziy Osiyo talabalar sporti forumi bo‘lib o‘tadi.

DAVRA SUHBATI

BOLANI IT DAN KIM HIMOYA QILADI?




Bugun TikTok, Instagram, YouTube va boshqa platformalar bolalar hayotining bir qismiga aylangan. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilayotgan vaqt, kiberbulling, zararli kontent, “ideal hayot” bosimi, layk, obunachilar orqali tashqi tasdiqqa bog‘lanish kabi muammolar tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda.

Jurnalist Muyassar Ibrohimovaning savollariga psixolog, Shveytsariya Lozanna xalqaro instituti (SIIL) talabasi Dilfuza JUMAYEVA, huquqshunos Ixtiyor ABDURAZZOQOV va “Domlajon” telegram sahifasi asoschisi, pedagog Isroil TILLABOYEV javob beradi.

(Davomi 6-sahifada).

ZAMONDOSH

Tafakkur jilolari



Zamonlar osha yashab kelayotgan tarixiy obidalarning naqshinkor devorlaridagi rangin tasvirlar bir haqiqatni so‘ylaydi: asl san’at abadiyatga doxil. Bir piri naqqosh qo‘llari bilan yaratilgan san’at mahsuli me’mor qurgan imorat devorlariga muhrlanar ekan, u lahzalik bezak emas, balki avloddan avlodga qolajak boqiy merosga aylanadi. O‘zbekiston xalq ustasi Hikmatulla Fayzullayevning zamonaviy tafakkur va milliy an’analarni o‘zida mujassam etgan nodir asarlari ham ulug‘vor inshootlarimizga betakror ko‘rk bag‘ishlamoqda.

(Davomi 3-sahifada).

DA’VONING DAVOSI NE?



(4-sahifada o‘qing).

DADIL QADAMLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

SOG‘LOM TIBBIYOT SARI

Prezident huzurida o‘tkazilgan tibbiyot va farmatsevtika ta’limini, xodimlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha taqdimot sohada mutlaqo yangi davrni boshlab beradi. Xususan, 2027/2028-o‘quv yilidan “Davolash ishi” o‘rniga 6 yillik “Umumiy



tibbiyot” dasturi joriy etiladi. Ta’lim nazariyadan amaliyotga yo‘naltirilib, oilaviy poliklinikalarda rezidentlar uchun o‘qish va amaliyot mujassamlashtiriladi.

2027-yildan ixtiyoriy, 2030-yildan esa majburiy tartibda tibbiyot xodimlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish (litsenziyalash) joriy etiladi. 16 ta baza bilan integratsiya qilingan Yagona elektron reyestr shakllantiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tmagan shifokor faoliyat yurita olmaydi. Bu bemorlar xavfsizligi va xizmat sifatini tubdan yaxshilaydi.

Yangi tizimga yordam berish uchun sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan oliy ma’lumotli shifokorlarga BHMning 5 baravarigacha, o‘rta tibbiyot xodimlariga 2,5 baravarigacha muntazam ustama to‘lanadi.

ZAMONAVIY SAN’AT MARKAZI

Davlatimiz rahbarining Toshkent shahridagi yangi Zamonaviy san’at markaziga tashrifi O‘zbekistonning nafaqat boy tarixiy-madaniy merosga, balki kelajakka yo‘naltirilgan kreativ iqtisodiyotga ham jiddiy e’tibor qaratayotganini ko‘rsatdi.

1912-yilda qurilgan sobiq tramvay deposi va dizel stansiyasi binosi Fransiyaning “Studio KO” byurosi tomonidan sanoat me’morchiligi saqlangan holda zamonaviy madaniy art-makonga aylantirildi. Bu



Markaziy Osiyodagi ilk shunday yirik muassasadir. Markaz o‘z faoliyatini Nyu-Yorkdagi Solomon Guggenxaym muzeyi to‘plamidagi installyatsiya bilan “Hikmah” ko‘rgazmasi orqali boshladi. “Tate”, “Centre Pompidou” kabi jahon sanoati gigantlari bilan hamkorlik Yangi O‘zbekistonning zamonaviy madaniy qiyofasini xalqaro maydonda mustahkamlaydi.

XITOY VA JAHON BOJXONA TASHKILOTI

Hafta davomida o‘tkazilgan oliy darajadagi qabullar O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi muvozanatli va pragmatik siyosatini yana bir bor namoyon etdi.



XKP Markaziy qo‘mitasi Xalqaro aloqalar bo‘limi mudiri Lyu Xaysin bilan uchrashuvda savdo va investitsiyalardan tashqari, partiyalararo hamkorlik va Xitoy yetakchi oliygohlari filiallarini O‘zbekistonda ochish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilishga kelishib olindi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston – Xitoy barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yuksak darajaga ko‘tarildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi izchil o‘smoqda, Xitoyning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qo‘shma loyihalar va korxonalar soni ortib bormoqda. Tashrif ana shu o‘zaro loyihalarni amaliy bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-sentyabr kuni Toshkentda VII Global kinologiya forumida ishtirok etish doirasida mamlakatimizda bo‘lib turgan Jahon bojxona tashkiloti bosh kotibi Yan Sondersni qabul qildi. Bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish, bojxona organlarining salohiyatini mustahkamlash va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Tashkilot ko‘magida O‘zbekiston savdoni yengillashtirish sohasidagi qator xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgan, zamonaviy bojxona nazorati mexanizmlari joriy etib, Bojxona xizmati faoliyatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Yan Sonders bilan muloqotda raqamlashtirish natijalari e’tirof etildi.

SERBIYA – O‘ZBEKISTONNING STRATEGIK SHERIGI

Haftaning eng muhim voqealaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Serbiya Respublikasiga amalga oshirgan ikki kunlik rasmiy tashrifi bo‘ldi. Diplomatik aloqalar o‘rnatilgan 1994-yildan beri O‘zbekiston yetakchisining Bolqon davlatiga amalga oshirgan birinchi tashrifini tarixiy deb baholash mumkin. Zero, Belgradda bo‘lib o‘tgan muzokaralar natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar. Bu tarixiy hujjat ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Qo‘shma biznes forumida O‘zbekiston



Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev strategik sheriklikni rivojlantirish uchun 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma harakatlar rejasini qabul qilishni taklif qildi.

Ushbu reja doirasida to‘qimachilik, elektrotexnika, avtomobilsozlik, farmatsevtika va raqamli texnologiyalar sohalarida birgalikdagi loyihalar amalga oshiriladi. Forumda ikki mamlakatdan 200 dan ortiq rasmiy va ishbilarmon doira vakillari ishtirok etdi. O‘zbekiston Prezidenti Serbiya biznesi uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga va har bir qo‘shma loyihani amalga oshirishda amaliy ko‘mak ko‘rsatishga tayyorligini bildirdi.

Tashrifning yana bir esda qolarli voqealaridan biri O‘zbekiston Prezidentining Katta zanjirli Serbiya Respublikasi ordeni bilan taqdirlanishi bo‘ldi. Orden Serbiyaning oliy davlat mukofotlaridan biri bo‘lib, u mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shayotgan shaxslargagina beriladi.

KABINET TIZIMIDAN MAHALLABAY YONDASHUVGA

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish va oilalar daromadini oshirish masalalariga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuv 3-sentyabr kuni belgilab berilgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, unda tuman va mahalla darajasida yangi tizimni amalga oshirish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish va byurokratik g‘ovlarni olib tashlash masalalari tanqidiy tahlil qilindi.

Yig‘ilishda Davlatimiz rahbari eng muhim konseptual masalaga to‘xtaldi. Kambag‘allikni qisqartirish – bu shunchaki “Ijtimoiy reyestr”ga kiritilganlarga nafaqa berish emas. Reyestr aholini vaqtincha qo‘llab-quvvatlash vositasi bo‘lsa, haqiqiy kambag‘allikni qisqartirish oilani mustaqil va barqaror daromad manbayiga bog‘lash, unga munosib ish o‘rni va sharoit yaratib berish demakdir. Shu bois, kabinetda o‘tirib, qog‘ozda raqam quvish amaliyotiga chek qo‘yilib, islohotlar bevosita mahallaga, har bir xonadonga kirib borishi shartligi qat’iy ta’kidlandi.



O‘tkazilgan yig‘ilish shuni ko‘rsatdiki, davlat tomonidan kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash uchun barcha resurs va vakolatlar eng quyi bo‘g‘inga – tuman va mahallaga berildi. Endigi asosiyvazifa – rahbarlarning kabinetdan chiqib, mahallabay va xonadonbay ishlash orqali har bir oilaga barqaror daromad manbayini yaratib berishidir. Bu Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi eng ustuvor va chekkaga surib bo‘lmaydigan talabi hisoblanadi.

Iqbol MIRZO

E’TIBOR

AYOL ILMLI BO‘LSA...

> **Talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotgani – Uchinchi Renessansning o‘ziga xos qiyofasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki, bilimli qizlar – bilimli oila, bilimli avlod va ma’rifatli jamiyat deganidir.**
>
> **Shavkat MIRZIYOYEV**





Saodat BOYMIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori

Davlatimizning oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati zamirida hech bir ayol o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolmasligi kerak, degan insonparvar tamoyil mujassam. Shu bois, qabul qilinayotgan qaror va dasturlarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, ularni qiynayotgan hayotiy masalalar o‘z ifodasini topmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2022-yil 7-martdagi farmoni xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlashda muhim huquqiy asoslardan biri bo‘ldi.

Farmonga muvofiq, 2022-2023-o‘quv yilidan oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiyotgan xotin-qizlar uchun yetti yil muddatga foizsiz ta’lim kreditlari ajratilishi yo‘lga qo‘yildi. Davlat oliy ta’lim muassasalari magistraturasida tahsil olayotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini davlat tomonidan qoplab berish tizimi joriy etildi, ya’ni, qaytarish shartisiz qoplash uchun har yili kamida 200 milliard so‘m moliyalashtirish belgilandi. Xorijiy bakalavriat dasturlari uchun ellik, magistratura dasturlari uchun o‘n nafar xotin-qizga har yili “El-yurt umidi” jamg‘armasining qo‘shimcha grantlari, doktoranturaga esa kamida 300 ta maqsadli kvota ajratilishi nazarda tutildi.

2016-yilda oliy ta’lim muassasalarida 102 ming 457 nafar xotin-qiz tahsil olgan bo‘lsa, bugun ular soni 904 mingdan oshib, jami talabalarning 54, magistratura bosqichida tahsil olayotganlarning esa 66 foizini, stajyor-tadqiqotchilar va doktoranturada o‘qiyotganlarning 8,5 ming nafari, ya’ni, 61 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. O‘tgan o‘quv yilida 60 nafar o‘quvchi qiz dunyoning eng nufuzli oliygohlariga o‘qishga qabul qilingani ham bu boradagi yaratilayotgan imkoniyatlar samarasidir.

Bundan anglashiladiki, endilikda masala faqat oliy ma’lumot diplomiga ega bo‘lish bilan cheklanmaydi. Qizlarning sifatli ta’lim, zamonaviy kasb, ilmiy izlanish va innovatsion faoliyatga kirishishi uchun uzluksiz imkoniyatlar zanjiri yaratilmoqda.

Kegeylilik Indira Satniyazova shu yil mart oyida Turkmanistonning Ashxobod shahrida o‘tkazilgan OMOUS xalqaro matematika olimpiadasida kumush medalni qo‘lga kiritdi. Buvaydalik Dilafro‘z Jo‘raboyeva xalqaro startap tanlovlarida g‘olib bo‘lib, “Microsoft” kompaniyasining O‘zbekistondagi elchisi sifatida e’tirof etildi. Bu qizlarimizning zamonaviy bilim, texnologiya va tashabbuskorlik bilan ulkan marralarga chiqayotganini ko‘rsatmoqda.

Prezidentimizning buxorolik Vazira Fayzullayeva va navoiylik Mashhura Qudratovaning xalqaro fan olimpiadalaridagi yutuqlarini alohida qayd etishi kimni quvontirmadi, deysiz. Kegeyli, Buxoro, Navoiy, Buvayda... Imkoniyatlar eng chekka hududlarga kirib borgani sari, iqtidorli yoshlar geografiyasi yanada kengaymoqda.

Bugun farzand tarbiyasi har qachongidan ham muhim masalalardan biriga aylandi. Raqamli muhit bolaning dunyoqarashiga, fikrlash tarzi va hayotiy tanlovlariga har daqiqada ta’sir ko‘rsatayotgan bir paytda, ota-onadan ham zamon bilan hamqadam bo‘lish talab etiladi. Ayniqsa, farzand qalbiga eng yaqin, uning ilk ustozi va ma’naviy tayanchi bo‘lgan ona zamonaviy bilimga, media va raqamli savodxonlikka, huquqiy hamda moliyaviy tushunchalarga, sog‘lom va mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lishi shart.

Xotin-qizlar ta’limiga yo‘naltirilayotgan mablag‘larni aholi salomatligi, jamiyatning huquqiy madaniyati, mehnat unumdorligi hamda kelajak avlod raqobatbardoshligiga sarmoya deyish mumkin. Negaki, oliy ma’lumot va zamonaviy kasb egallagan ayol daromad manbalarini kengaytirish, murakkab vaziyatlarda asosli qaror qabul qilish, farzandlar ta’limiga ko‘proq resurs va e’tibor yo‘naltirish imkoniga ega bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizning kambag‘allikni qisqartirish siyosatida xotin-qizlar ta’limi ham ustuvor omillardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Bu esa faqat bir ayolning turmush darajasini emas, balki butun oilaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyini yaxshilashga xizmat qiladi.

Albatta, erishilgan natijalar bilan bir qatorda, bugun tegishli davlat idora va tashkilotlari oldida turgan vazifalar ko‘lami ham nihoyatda keng. Son ko‘rsatkichlaridan sifat bosqichi va yuqori natijalar sari ildamlash, sifat ko‘rsatkichlarini qat’iy oshirish talab etiladi. Ta’lim samaradorligi bitiruvchilarning munosib bandligi, barqaror daromadi, ilmiy ishlanmalar-u innovatsion g‘oyasi va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki bilan baholanishi kerak. Ayniqsa, aniq fanlar, muhandislik, axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, “yashil iqtisodiyot”, tibbiyot va ilmiy tadqiqotlarda xotin-qizlar salohiyatini kengroq ro‘yobga chiqarish ustuvor vazifamizdir.

Shu nuqtayi nazardan, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimi zimmasidagi mas’uliyat ham tobora ortib bormoqda. Bugun har bir mahallada iste’dodli, bilim olishga intilayotgan qizlarni erta aniqlash, qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash va orzularini mavjud imkoniyatlar bilan bog‘lash g‘oyat muhim. Ayniqsa, ehtiyojmand oilalarda voyaga yetayotgan qizlarga davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlarni manzilli yetkazish, kasb-hunar o‘rganayotgan xotin-qizlarni barqaror ish o‘rinlari va daromad manbalari bilan bog‘lashda tizim xodimlari, xususan, mahalladagi xotin-qizlar faollarining o‘rni har qachongidan ham katta.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida mentorlik, ilmiy rahbarlik va karyera xizmatlarini kuchaytirish, talaba qizlarning qobiliyati va qiziqishini yanada rivojlantirish zarur. Ta’lim muassasalari bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlik qanchalik mustahkam bo‘lsa, olingan bilimning amaliy natijaga, mutaxassislikning munosib ish o‘rniga, iqtidorning esa jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan salohiyatga aylanishi shunchalik tezlashadi.

Farovon oila haqida so‘z yuritar ekanmiz, uning markazida bilimli, ma’rifatli, qadri ulug‘langan va o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarayotgan ayol siymosini ko‘ramiz. Oilada ayol qadr topsa, o‘sha xonadonda mehr-oqibat mustahkamlanadi, barkamol farzandlar ulg‘ayadi, kelajakka ishonch ortadi. Vatan taraqqiyoti esa, avvalo, o‘z oilasida baxtli yashayotgan, farzandlarini ilm-ma’rifatga oshno, vatanparvarlik ruhida tarbiyalayotgan, halol mehnati va tashabbusi bilan jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shayotgan millionlab ayollarning hayotidan boshlanadi.

OG‘U VA DORU

Boshlanishi 1-sahifada.

Safarimizning eng muhim yutug‘i – biologik faol moddalarni hujayralar darajasida sinovdan o‘tkazish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallash bo‘ldi. Soham – kimyogarlik, asosiy vazifam moddalarni ajratib olish, sintez qilish va tuzilishini aniqlashdan iborat. Yangi bilimlar orqali endilikda biologik faollikni hujayralarda tekshirish bo‘yicha tadqiqotlarimizni yanada yuqori bosqichga olib chiqamiz. Xorijlik olimlar bilan muloqot, ilmiy natijalarni muhokama etish va xalqaro ilmiy muhitdagi tadqiqot madaniyatini chuqurroq o‘rganish ham katta tajriba bo‘ldi.



E’tiborli jihatlaridan biri, Debresen universitetida ilmiy daraja asosiy maqsad sanalmay, balki sifatli ilmiy natijalarga erishish yo‘lidagi bosqich sifatida qaralar ekan. Shuning uchun ham mojor qardoshlarimiz vaqt masalasiga bag‘rikenglik bilan qaraydi, shoshilmasdan shoshiladi. Kamina Xitoy Fanlar akademiyasining Shinjon fizika va kimyo-texnika instituti doktoranturasida tahsil olganman. Bu yerda ilmiy-tadqiqot ishlari nihoyatda jadal sur’atda olib borilishiga guvoh bo‘lganman. Har ikkala lokatsiyada ham natijalar havas qilgulik.

Sharq-u G‘arb metodlarini ko‘rgach, biz qaysi yo‘ldan borishimiz kerak, degan savol tug‘iladi. Markaziy Osiyo allomalari tarixdan vazminlik, aniqlik va mo‘tadillikni afzal ko‘rgani bilan ajralib turadi. Biz uchun ham eng to‘g‘ri yo‘l shu hisoblanadi, nazarimda. Zamon shiddat bilan taraqqiy etaveradi, biroq ilm-fan chuqur nazariya va mustahkam amaliyot bilan rivojlanadi. Eng yangi ixtiro va kashfiyotlar ortida ham o‘n yillik, balki asriy mehnat natijasi yotibdi.

“MEN ILON OG‘ZIDAN SHAKKARTALABMAN”

Boburiy malikalarning jadidi bo‘lgan Zebunnisobegimning ushbu satri bizning tadqiqotimizga eng aniq va go‘zal sharh, deb bilaman. Ixtiro va kashfiyotlar uzoq vaqt olishi bilan birga, faqat bir kishining faoliyati natijasi emas, balki butun bir ilmiy guruhning izlanishlari mahsulidir. Ilmiy guruhimiz rahbari Sharofiddin Mirzaahmedov 1990-yillarda nomzodlik dissertatsiyasi ustida ishlash asnosida baqa zahridan biologik faol moddalarni ajratib olgan. Ushbu moddalar umumiy nom bilan bufadiyenolidlar deb ataladi. Uning bufalin, gamabufotalin, telosinobufagin, arenobufagin kabi bir necha tabiiy kimyoviy birikmalari mavjud.

Bu yo‘nalish guruhimizdagi yosh olimlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Biz ham ustozimiz boshchiligida bufadiyenolidlarning saratonga qarshi biologik faolligini o‘rganishni boshladik. Tadqiqotlar davomida ushbu moddalar saraton hujayralarida muhim rol o‘ynaydigan ayrim fermentlarni bloklashi aniqlandi. Natijalarimiz nufuzli xalqaro jurnallarda e’lon qilindi. Biroq bu moddalarni saratonni davolash uchun zarur bo‘lgan dozalarda qo‘llash muayyan muammoni yuzaga keltiradi. Chunki ular yurak urishini haddan tashqari tezlashtirib, nojo‘ya ta’sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, tadqiqotimizning asosiy maqsadi – moddalarning yurak faoliyatiga ta’sirini kamaytirish yoki butunlay yo‘qotish, ayni paytda, saratonga qarshi faolligini saqlab qolish yoki yanada kuchaytirishdir.

Bunga erishish uchun molekulalarning muayyan qismlariga kimyoviy reaksiyalar yordamida qo‘shimcha tuzilmalar va funksional guruhlar biriktirildi. Alhosil, moddalarning kimyoviy tuzilishi o‘zgartirilib, yangi xususiyatlarga ega birikmalar olindi. Xitoy Fanlar akademiyasi institutlarida magistratura va doktorantura bosqichlarida tahsil olib, yetarli tajriba orttirgan yosh olimlarimiz va hamkasblarimiz ushbu moddalarni kimyoviy yo‘l bilan modifikatsiya qildilar.

* * *

Bioorganik kimyo instituti laboratoriyasining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri turli hayvonlar zahri tarkibidan yangi biologik faol moddalarni izlab topish, ularni ajratib olish, tozalash va kimyoviy tuzilishini aniqlashdan iborat. Hayvon zahri tarkibida minglab turli komponentlar mavjud. Ana shu murakkab aralashma orasidan biologik faollikka ega, kelajakda muayyan kasalliklarni davolashda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan moddalarni topish katta ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

Hozirda laboratoriyamizda olib borilayotgan jarayonlardan biri “gel filtratsiya” usuli hisoblanadi. Bu usul yordamida, masalan, ilon zahri tarkibidagi moddalar bir-biridan molekulyar o‘lchamlariga qarab ajratiladi. Peristaltik nasos yordamida bufer eritma kolonkaga muntazam uzatib turiladi. Kattaroq molekulali moddalar tezroq, kichikroq molekulali moddalar esa nisbatan sekinroq harakatlanadi. Natijada ular bir-biridan ajralib, kolonkadan alohida fraksiyalar holida chiqib keladi.

Dastlab detektorga kelgan moddalar qayd etilib, olingan signal kompyuterga uzatiladi. Jarayonni aks ettiruvchi grafik yordamida qaysi probirkalarda ma’lum modda yoki moddalar guruhi yig‘ilganini aniqlash mumkin. Keyinchalik ushbu fraksiyalar maxsus usullar yordamida quritilib, yana boshqa turdagi xromatografik usullarda qayta ajratiladi. Bu jarayon bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Oxir-oqibat individual toza moddani ajratib olishga erishiladi. Shundan so‘ng, ularning kimyoviy tuzilishi va biologik faolligi o‘rganiladi. Turli fermentlar yoki hujayralarda sinovdan o‘tkazilib, organizmga ta’siri aniqlanadi. Aslida, bu juda murakkab va ko‘p bosqichli jarayon.

KEYINGI BEKAT – SINOV

Debresen universitetida olib borilgan tajribalar davomida sintez qilingan moddalar saraton hujayralarida dastlabki sinovdan o‘tkazildi. Biroq amaliyot muddati cheklangani sababli tadqiqotlarni to‘liq yakunlash imkoni bo‘lmadi. Xususan, moddalar saraton hujayralariga uch xil konsentratsiyada sinovdan o‘tkazilib, ularning hujayralarga ko‘rsatadigan dastlabki ta’siri o‘rganildi. Biologik faol moddalarning samaradorligini baholashda xalqaro miqyosda qabul qilingan muhim ko‘rsatkichlardan biri – 50 foizlik ingibision konsentratsiya, ya’ni, IC50 ko‘rsatkichidir. Bu moddaning biologik jarayon yoki hujayra faoliyatiga 50 foizlik ta’sir ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan konsentratsiyani aniqlash imkonini beradi. Mazkur qiymatni aniq belgilash uchun moddalarni turli xil konsentratsiyalarda kengroq miqyosda sinovdan o‘tkazish talab etiladi. Buning uchun esa ko‘proq vaqt, hujayralar va tadqiqot materiallari zarur bo‘ladi. Shu sababli, bir yarim oylik amaliyot davomida biz faqat dastlabki natijalarni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldik.

Endilikda tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirib, istiqbolli moddalarning aniq biologik faolligini va IC50 ko‘rsatkichlarini aniqlash rejalashtirilmoqda. Shundan so‘ng, eng samarali birikmalarni jonivorlarda sinovdan o‘tkazish bosqichiga o‘tiladi.

E’TIBOR VA ISHONCH

Kelgusida saraton kasalliklarini davolash va oldini olish imkoniyatlari yanada kengayadi, deb o‘ylayman. Chunki bugungi kunda bu masalaga davlat miqyosida katta e’tibor qaratilmoqda. Onkologik kasalliklarga qarshi kurashuvchi tibbiyot muassasalari zamonaviy moddiy-texnik baza va malakali kadrlar bilan ta’minlanmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalarida ham bu boradagi imkoniyatlar yildan yilga kengayib boryapti. Masalan, bugun biz suhbatlashib o‘tirgan zamonaviy jihozlarga ega mana shu laboratoriya besh yil avval bo‘m-bo‘sh xona edi. Yillar davomida bosqichma-bosqich zarur mebellar, ilmiy jihozlar, reaktivlar va tajribalar uchun kerakli butlovchi vositalar olib kelindi. Bugun bu yerda turli ilmiy tadqiqotlar va tajribalar olib borilmoqda.

Bunday imkoniyatlarga, avvalo, davlat tomonidan moliyalashtirilayotgan turli ilmiy loyihalar orqali erishilmoqda. Ilmiy-tadqiqot institutlarida mutasaddi tashkilotlar va olimlarning tashabbuslari bilan yangi turdagi dorilarni yaratish va o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Oldimizdagi asosiy rejalarimizdan biri, albatta, olib borayotgan tadqiqotlarimiz natijasida yaratilayotgan moddalarni imkon qadar tezroq amaliy mahsulot darajasiga olib chiqishdir. Yangi dori moddasini kashf etishdan tortib, uni tayyor mahsulot sifatida amaliyotga joriy etishgacha ba’zan o‘nlab yillar talab qilinadi. Hatto shunday dorilar borki, ularni kashf qilgan olim o‘z ishlanmasining tayyor dori vositasiga aylanganini ko‘rishga ulgurmagan. Bunda faqat ilmiy izlanishlar yoki laboratoriya imkoniyatlarining o‘zi yetarli emas. Dori vositasining amaliyotga kirib borishiga bozor muhiti, ishlab chiqarish imkoniyatlari va farmatsevtika sohasidagi iqtisodiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan, olim o‘zining ilmiy qiziqishlari asosida yangi va samarali dori moddasini yaratishi mumkin. Ammo uni ishlab chiqarish xarajatlari yuqori bo‘lib, tayyor mahsulot bozordagi mavjud dorilarga nisbatan qimmatroq bo‘lib qolish ehtimoli bor. Aksincha, olim samarali va nisbatan arzon dori vositasini yaratishi ham mumkin. Biroq bunday mahalliy ishlanmaning bozorda o‘z o‘rnini topishi, ommalashishi va keng qo‘llanishi hamisha ham oson kechmaydi. Farmatsevtika bozoridagi mavjud sharoit va raqobat kabi omillar ham yangi dori vositalarining amaliyotga kirib borishiga ta’sir qilishi mumkin.

Shunga qaramay, vaqt o‘tishi bilan olimlarimizning ilmiy mahsulotlari amaliyotga joriy etilib, insonlar salomatligi va hayoti uchun real foyda keltirishiga umid qilamiz. Chunki ilmiy tadqiqotning eng katta maqsadi – bilim va natijalarni inson manfaatiga xizmat qildirishdir.

Vasila HABIBULLAYEVA
yozib oldi.



“Insonga ilm egallashi va o‘zi uchun manfaatli narsalarga erishishi uchun quloq, ko‘z va qalb berilgan.

Imom MOTURIDIY

Tafakkur jilolari

Boshlanishi 1-sahifada.

Ko‘pchiligimiz butunjahon madaniy yodgorliklari deya e’tirof etiladigan tarixiy inshootlar qarshisida suratlarga tushamiz, ularning mahobatiga tasannolar aytamiz. Ammo bu obidalarga qay naqqosh go‘zallik baxsh etgani, bezak berishda qaysi rang, qanday uslublardan foydalanilganiga ko‘pda e’tibor bermaymiz. Binobarin, dunyo ahlini hayratga solayotgan bu benazir binolarga zamonaviy ruh berib, asrlarga tatigulik mehnat qilayotgan insonlar shundoqqina yonimizda tinim bilmay ijod qilyapti.

Hikmatulla ustaning tarjimayi holi o‘zi chizgan eskizlariga monand. U ona shahri Toshkentdan tortib, O‘zbekistonning deyarli barcha shaharlari, qardosh davlatlar-u Yevropa, Amerika qit’alarida ham betakror asarlar yaratgan. Uning Imom Buxoriy majmuasi, Islom Karimov maqbarasi, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Abdulla Qodiriy uy-muzeyi, O‘rda maydonidagi Navro‘z bog‘i, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf maqbarasi, Rossiyaning Grozniy shahridagi masjid, Qozog‘istonning Turkiston shahridagi Abu Bakr masjidi mehmonxonasi uchun ishlagan bezaklari barchaning e’tiborini tortib kelmoqda.

Ayniqsa, muhtasham Islom sivilizatsiyasi markazining ichki badiiy bezaklari va naqqoshlik yechimlarini yaratishda milliy amaliy san’atimizning yuksak namunalarini zamonaviy me’moriy muhitga tatbiq etishi tarixda qoladigan ish bo‘ldi.



Hikmatilla akada sohaga qiziqish bolalik xonadoniga taniqli naqqosh Toyir To‘xtaxo‘jayevning kelishi bilan boshlanadi. Naqqosh qo‘lidagi oddiygina qalam bilan turli naqshlarni tez va oson chizayotganini hayratlanib kuzatgan bolakay tengqurlari bilan o‘ynagani ham chiqmay qo‘yadi. U kun bo‘yi ustaning atrofida aylanishib, har xil savollar beradi. Endigina o‘n yoshdan oshgan bolaning qiziqishidan zavqlangan usta uy sohibi Rashidullo akaga farzandida naqqoshlik san’atiga kuchli ishtiyoq borligini aytib, uni O‘zbekiston xalq rassomi Jalil Hakimovga shogirdlikka berish zarurligini ta’kidlaydi. Ota fursatni boy bermay, o‘g‘lini Respublika o‘quvchilar saroyiga yetaklab boradi. Bu yerda ganchkorlik, naqqoshlik, kulolchilik va boshqa amaliy san’at turlari ham o‘rgatilar, o‘quvchilar ko‘zga ko‘ringan ustalar qo‘lida hunar o‘rganardi.

– Jalil aka hammamizni mehnatsevar qilib tarbiyaladi, – deydi qahramonimiz. – 1972-yili ustozimning tavsiyasi bilan P. Benkov nomidagi rassomlik bilim yurtiga o‘qishga qabul qilindim. O‘sha paytda bu bilim yurtiga uncha-muncha odam o‘qishga kirolmasdi. Qunt bilan o‘qidim. Jalil akaning “Pulning ketidan quvmagin, san’atni, ilmni quv. Pul o‘zi seni topib kelaveradi”, degan pandlarini har doim yodda tutdim. U kishi katta usta bo‘lib tanilishimni, tahsilni oliy ta’lim dargohlarida davom ettirishimni xohlar, “O‘zingdan iz qoldir, o‘rganganingni o‘rgatgin ham”, deb ta’kidlardi.

Hikmatilla aka ustozining aytganlariga amal qildi. 1976-yilda Teatr va rassomlik institutiga hujjat topshirib, imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tdi. Institutda xalq amaliy san’atiga oid bilimlarini chuqurlashtirdi. Hali o‘quvchilik davridayoq xonadon bezash bo‘yicha buyurtmalar tusha boshlagan bo‘lsa-da, daromad ortidan quvmadi. Ustozlari ko‘rsatgan yo‘ldan og‘ishmay, bor kuch-g‘ayratini naqqoshlikni san’at darajasida o‘zlashtirishga sarfladi. Ustani tanitgan ilk ish Bo‘ka shahridagi jamoat binosining katta zali devorlari va shiftiga bezak berish bo‘ldi. Ko‘ngildagidek yakunlangan vazifa 24 yoshli yigitga mustaqil faoliyat yuritish eshigini ochdi.

Usta asosiy e’tiborini ajdodlardan meros naqshlarni qayta tiklashga qaratdi. Ustozlari Toyir To‘xtaxo‘jayev hamda Jalil Hakimovdan qo‘l olib, Toshkent naqqoshlik maktabini davom ettirdi. Mutaxassislar ta’biri bilan aytganda, uslubiy serqirralikka erishdi, zamonaviy binolarga an’anaviy milliy naqshlar solib, sohaga yangilik kiritdi. Shuningdek, naqqoshlikdagi qotib qolgan kundal texnikasini rivojlantirdi, kompozitsiya san’atida ranglarni boyitishga erishdi. Chizmada soyani ifodalash orqali naqshlarni bo‘rttirib jilolantirdi. Gullardagi taroq uslubini yedirma uslubiga o‘tkazib, zamonaviy bezakning naqshinkorligi va ganchkorlikdagi mutanosibligini topdi.

Bugun uning mehnati singgan ko‘shklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish uchun butun dunyodan nufuzli mehmonlar, sayyohlar kelib, bu asarlarni ulkan hayrat va ehtirom bilan tomosha qiladi.

H.Fayzullayev o‘z kasbining injiqliklarini yengib o‘ta oladigan mohir usta bo‘lish bilan birga, an’anaviy naqsh san’ati ta’limiga asos solib, qator shogirdlar tayyorlayotgan ustoz hamdir. U qariyb qirq yildan buyon Respublika ixtisoslashtirilgan san’at maktab-internatida saboq beradi. O‘quvchi yoshlarga hayot va voqelikka bo‘lgan estetik munosabatni tasvirga ko‘chirish orqali o‘z qo‘llari bilan san’at asarlari yaratish asrorini o‘rgatib kelmoqda. Shogirdlarining ko‘pchiligi bugun u bilan yonma-yon faoliyat olib borib, davlat e’tiboriga molik ko‘plab binolarning pardozlash ishlarini birgalikda bajarmoqda. Jizzax, Samarqand, Urganch shaharlaridagi Prezident rezidensiyalarining interyerlari, Jizzax viloyat musiqali drama teatri, ochiq osmon ostidagi muzey shaklida barpo etilgan Navro‘z etnografik bog‘ining o‘n to‘rt xonasi, Imom Buxoriy majmuasi ayvonlarini bezash ishlari shular jumlasidandir.

Xalq ustasi yaratgan ornamentlar Angliya, Fransiya, Italiya kabi qator davlatlarda o‘tgan xalqaro amaliy san’at ko‘rgazmalarda yuqori baholanmoqda. Bunga tinimsiz mehnat-mashaqqat bilan erishiladi. Ayniqsa, naqqoshlikda izlanishdan tashqari, ulkan toqat va matonat kerak.

– Birgina Imom Buxoriy majmuasini bezash uchun uch yarim mingga yaqin eskiz chizdim, – deydi usta. – Har bir hududning o‘z rangi va uslubi bor. Masalan, vodiy naqqoshligida ochiqroq rangdorlik ustun. Vodiyga aloqador ishlarimda qizil, yashil va havorang bo‘yoqlar bilan ishlayman. Buxoro va Xorazm ornamentlarida esa to‘q, jumladan, jigarrang ko‘proq ishlatiladi. Qaysi hududdan ish oladigan bo‘lsam, o‘sha joyning mahalliy dizaynerlari bilan hamkorlik o‘rnataman, ular bilan o‘sha joy tarixidan, qadriyatlaridan kelib chiqib maslahatlashaman. Bu juda muhim, chunki har bir qadamjo o‘sha joyning ruhini o‘zida mujassam eta olishi shart.

Darvoqe, Islom sivilizatsiyasi markazi uchun yaratgan eskizlari ustaning eng yirik ijodiy ishlaridan bo‘ldi. Bu naqshlarda islimiy va gireh uslublari, muqarnas bezaklar zamonaviy me’moriy yechim bilan uyg‘unlashgan. Markazning Qur’on zalidagi shift va devorlarni bezaklash uchun u bir yil davomida ellik to‘rt metr balandlikda ishladi. Zamonaviy dunyoning ushbu noyob loyihasi uchun ellikdan ortiq eskiz taqdim etdi. Markazning pol qismi uchun ham alohida chizmalar chizdi.

Usta interyer dizayni va keramika san’atini mukammal o‘rganish uchun o‘n ikki yil davomida izchil intilib, oliy o‘quv yurtining ikki fakultetida tahsil olgan. Bilimga intilish va mehnatkashlik qon-qoniga singgan ustoz o‘quvchi-shogirdlari oldiga ham qat’iy talab qo‘yadi. Har bir izdoshining yetuk hunarmand bo‘lib kamol topishi uchun vaqtini ayamaydi.

Hikmatulla Fayzullayev hamkasblari va shogirdlari bilan doim birga. Tinib-tinchimas ijodkor amaliy bezak va xalq hunarmandchiligi ko‘rgazmalarida, naqqoshlik san’atiga bag‘ishlangan turli festivallarda milliy san’atimiz an’analarini targ‘ib qiladi. Qilingan xizmatlar besamar ketmadi. Xalq amaliy san’ati va milliy naqqoshlik sohasi rivojiga qo‘shgan hissasi uchun 2020-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni, joriy yilning mayida “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

Ilhom va mehnatni birlashtira olgan inson haqiqiy san’at asari yarata oladi. Chunki uning dunyoga kelishida faqat qo‘llar emas, qalb ham ishtirok etadi. Hikmatilla Fayzullayev kabi benazir ustalar bor ekan, naqqoshlik san’ati asrlar osha yashayveradi hamda tafakkur va tasvirning mangulik sadosiga aylanadi.

Muhayyo RUSTAMOVA

TALQIN

DA’VONING DAVOSINE?



GALSTUKLI QASSOB

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A’zamning yangi asari – “Da’vo” romani nashrdan chiqdi. Mutolaadan keyingi mulohazalarimni bayon qilishni kitob boshidan emas, sal oxirrog‘idan, 6-bobdagi bir holat tasviridan boshlamoqchiman. Bu holat ramziy ma’noda ham, real ma’noda ham roman mohiyatiga kirishda kalit vazifasini o‘taydi. Asar qahramoni Jamshid Bo‘ron tilidan hikoya qilinadigan bu epizod shunday: “Ustoz ko‘rsatgan tomonga o‘tib, qotib qolay dedim. Pastak behining egri shoxida hozirgina terisi shilingan qo‘zi, oldiga peshband tutib, oq ko‘ylagi yengini shimarib olgan, erta-indin fan doktori bo‘lajak Ramziddin Po‘latov og‘zida pichoqni ko‘ndalang tishlagan ko‘yi abjirlik bilan son go‘shtni tanadan ajratib, supra ustidagi korsonga tashlamoqda. Qora kostyum bilan qizil bo‘yinbog‘ olma shoxiga osib qo‘yilgan. Kiyim-boshni almashtirib qilsa bo‘lmasmikan shu ishni? – Qassobchilik qutlug‘ bo‘lsin, aka! – dedim ham taajjub, ham zavq bilan”.

Xuddi shu oq ko‘ylakda yeng shimarib qo‘y so‘yayotgan odam bir kun kelib o‘zining ustozini “so‘yadi”, desam, ishonasizmi? Ha, bu muloyimxunuk da’vogar unga oq-u qorani tanitgan, yo‘l ko‘rsatgan o‘z muallimini qora kostyum va qizil galstukda, qo‘li ko‘ksida, beozorgina jilmayib, pichoqsiz so‘yadi. Hech narsa bo‘lmaganday, aslida “hamma vaqt shunday bo‘lishi” kerakday xijolatsiz “so‘yadi”. Soxta unvon, soxta shon uchun, “kimsan, akademik” degan nom uchun shunday tubanlikka boradi. U piri murshidini bo‘g‘izlayotganda ham soxta mulozamatini, o‘lik tabassumini darig‘ tutmaydi, ajabo! Bunday vaziyatda nima ham deya olasan? “Dunyosi tamom bo‘pti, Jamshid Bo‘ron, dodingni Xudoga aytasan endi!” – deb ich-ichingdan faryod ko‘tarasan, xolos.

Holbuki, ustoz Shokir To‘laganov bu murtadni o‘z farzandiday ko‘rardi. Shu bois, nekbin Jamshid Bo‘ron aynan Ramziddin-u Ruhiddin Po‘latovlar bilan bog‘liq bir muammosi haqida unga aytay deganda, ko‘nglidan shunday o‘y o‘tadi: “Ustozni aralashtiray desang, u kishining nima demog‘i ayon: “Ramziddinga ayt, o‘zingning akang-ku!” Soddagina qilib, bolalarcha ishonch bilan shunday deydi, aniq. O‘zimning akam?! Agar kechagi gumonlar rost chiqsa, u menga qanday aka-yu sizga qanday shogird bo‘lsin, Ustoz?!”

TARKI DUNYO, TARKI ILM

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi o‘ta murakkab sharoitda ilm-fanga, olimlarga munosabat nechog‘li cho‘kib ketganini hamma biladi. Talay ilm ahli qalam-qog‘ozini shamolga tashlab, bozorga chiqib ketgani ham bor gap. Ilm maydonida sobit qolganlar esa ko‘p ovora-yu aftoda bo‘ldilar. Bu fojia ham (ilimiliq so‘zlarni izlab o‘tirmay, bu holni fojia deb qo‘ya qolaylik) romanda keskirgina so‘zlar bilan o‘z narxida xolis baholangan.

“To‘g‘ri-da, deylik, sportga qarashilsa, zo‘r-zo‘r chempionlar chiqib, jahon bo‘ylab yurtning dong‘i oshadi; san’atkor-u yallachilarga nishon-pishon berib turilsa, to‘y-to‘ychig‘ingizga yaraydi; shoir-yozuvchisiga har zamonda “balli” deb qo‘ysangiz, el oldida so‘z topolmay qolganingizda, osmon-u falakdan kelib, joningizga ora kiradi – ilm-fandan nima naf, nima shamchiroq, xo‘sh?! O‘ttiz-qirqlab tadqiqot instituti, allaqanday markaz-u stansiya atalmish har turli muassasalar, ularda ivirsib yuradigan minglab tepakal “avliyo”… Shularning orasidan birorta Nobel sovrindori chiqdimi deng?!”

Menga akamday qadrdon bo‘lgan taniqli fan doktori, professorning o‘sha yillari: “Yelkamdagi plashimni olganimga 22 yil bo‘ldi. Almashtirishga imkonim yo‘q”, degan gapini, yana bir fidoyi, yirik biolog olimning: “Men ishxonaga faqat ishimni yaxshi ko‘rganimdan, usiz yashay olmaganimdan kelaman. Yo‘qsa, berayotgan oyliklari yo‘lga yetmaydi. Bir kosa ovqatni uyimdan ko‘tarib kelaman”, degan gaplarini eshitganman.

Adib ilm ahliga nisbatan bunday bepisandlik va zug‘umni “ilmbezorlik” degan birgina qo‘shma so‘zda ifodalab beradi. Shugina so‘zda jamiyatga baho ham, tashxis ham bor. Albatta, “miyasida nimadir g‘imirlab turgan mardum”ni istagan ko‘yga solish qiyin, chunki u fikrlayapti, fikr bormi, e’tiroz ham bo‘ladi. Bunday o‘r qavm esa “buyruq bilan ikki karra ikkini besh qilib bo‘lmaydi”, deb oyog‘ida mahkam turib oladi. Ba’zilarini buldozer bilan ham o‘rnidan jildirolmaysiz. O‘zi zo‘rg‘a yuradi-yu, lekin bunday masalalarga qolganda, qattiqroq shamolga yiqiladigan jussa birdan metin bir qoyaga aylanadi. Lekin zamon ham ularning ra’yiga muloyimgina qarab turmaydi, kerak bo‘lsa, bir siltab, tutday to‘kib tashlaydi. “Shunaqami hali?! Qarab turing, kerak bo‘lsa, ikki karra ikkingizni birga aylantirib qo‘yamiz! Yoping, daf qiling, bunaqa sarkash, tekinxo‘rlar mahkamasining bizga darkori yo‘q!” – degan do‘q bilan butun mamlakatni gumburlatadi. Qarabsizki, ahli ilmning boshini qovushtirib turgan, ozmi-ko‘pmi yangi g‘oyalar nish urib turgan dargoh bir do‘q-siyosat bilan “tekinxo‘rlar mahkamasi”ga aylanadi qoladi.

Bunday munosabatdan so‘ng nima bo‘ladi? Shubhasiz, haqiqiy olimlar, fidoyilar, manglayiga olimlik qismati yozilganlar chetga chiqadilar, tarki dunyo, tarki jamiyat qiladilar. Endi ilmga kirib kelayotganlar esa tarki ilmni ma’qul ko‘radilar. Oqibatda, Alining maydonini soxta ilmkashlar, xushomadgo‘ylar, “delovoylar”, karnaychilar-u pufakchilar egallaydilar. Ularga “ilm” navbatdagi karyera, hech qursa, “ptichka” uchun kerak bo‘lib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Kerakli toshning og‘iri bo‘lmaganday, keraksiz tosh ham kun kelib asqotishi mumkin.

QISQA BIR ZAIFLIK VA UZUN BIR DA’VO

“Da’vo” romani jamiyatga, xususan, ziyolilar qatlamiga katta ko‘zgu tutdi. Bu ko‘zguda ko‘p narsalar ayon ko‘rinib qoladi. Yolg‘onlar, xiyonatlar, fitnalar, sotqinliklar... Ziyolilar jamiyati Tolstoy yuz o‘girgan kiborlar jamiyatiga aylanib qolmadimikin, degan ishtibohlarga borasiz. Kattagina ilm dargohining inspektori Dono Inoyatovna deydiki: “Bunaqasi bo‘lib turadi, Jamshidbek. Oramizdagi gap, ishingiz yuzasidan ikkita taqriz kelgan, ikkalasi ham ijobiy – o‘zim o‘qib ko‘rdim. U yog‘ini so‘rasangiz... diplomingizga imzo ham chekilgan bo‘lishi mumkin. Lekin o‘rtada birov eshikni tambalab turibdi-da. Kimligini bilarsiz – tepadagi mutasaddimiz, Ruhiddin Po‘latov. Do‘stona maslahat-da, o‘sha kishiga bitta qo‘ng‘iroq qilinsa, olam guliston. Yuqorida tanish-panishingiz bormi?

Jamshid o‘ylanib qoldi: Ruhiddin Po‘latov bo‘lsa, Ramziddin akaga qarindosh-parindosh emasmikan? Shunday bir gap qulog‘iga chalingandek bo‘lib edi. Biroq u nega to‘sqinlik qiladi? Kim uning arpasini xom o‘ribdi?

Jamshid boshini ko‘tarib ayolga qaradi, nozik bir joyiga tig‘ urilgandek ichdan seskandi, keyin nima deyarini bilmay, asta burilib xonadan chiqdi”.

Eshikni tambalash bir zamonlar Ruhiddin Po‘latov bilan ustoz Shokir To‘laganov orasida bo‘lib o‘tgan tariqdan ham kichik bir mayda gap uchun edi.

Roman da’volar to‘qnashuvi, ambitsiyalar jangini tasvirlaydi. Kurashlar ochiq maydonda emas, orqavoratdan pana-panada kechadi. O‘zi ultonchaning ham iddaosi osmoncha. Hakim Termiziy “Inson nima?” – degan savolga: “Inson bu – qisqa bir zaiflik va uzun bir da’vodir”, deb javob bergan. Asarda xuddi shu “qisqa zaiflik va uzun da’vo”ning tuganmas o‘yinlari tasvirlanadi.

BIR KITOB ICHIDA YONMA-YON YASHAYOTGANLAR

Romanda xarakterlar qattiq ishlangan, har bir odam o‘z xarakteri, o‘z dunyosiga ega. Qatorlashib, inkubatordan chiqqan bir xil yasama personajlar emas ular. Bosh qahramon Jamshid Bo‘ronning nomzodlik dissertatsiyasi “o‘sha kezlar mumkin edi-da. Jamshid qaysar va halol, darveshnamo ustozi Shokir To‘laganovning izidan boraveradi. To‘laganov esa – Vatan tarixini buzib ko‘rsatuvchilarga tish-tirnog‘i bilan qarshi turadigan, bosqinchilar istilosining ayanchli oqibatlarini chuqur biladigan, yurtining tarixi uchun ham, kelajagi uchun ham kuyunadigan haqiqiy ilm odami.

Romanda bu odamlardan tabiatan yiroq bo‘lgan ajab-ajab toifalar bor. Garchi bular tiynatan teskari bo‘lsalarda, nailoj, bir kitob – bir dunyo ichida yonma-yon yashaydilar, o‘zaro munosabatlarga kirishadilar. Masalan, Junayd Jabborzoda, Shohiya Amur... Ismi shariflarning hashamatini qarang, otni hurkitadi-ya. Junayd bir qarasangiz, tuman prokurori, bir qarasangiz, viloyatda mas’ul lavozimda, yana bir qarasangiz, poytaxtda nufuzli martabada. Qizig‘i, Junayd bu mansab-u martabalar bilan cheklanib qolmaydi. Goho shoirga, goho bastakorga, goho rassomga aylanadi. “... dovruq-ovozasi to‘rt tomonni tutgan: Junayd Jabborzoda she’ri, Junayd Jayhun musiqasi, Junayd Jabborlining rangtasvir asarlari... Bamisoli bir kishi emas, butun boshli to‘da tinmay she’r-u qo‘shiq yozib, musiqa bastalab, yana bir galasi dastgoh qurib rasm chizib yotgandek!” Bu jumladagi “to‘da” so‘zida vaziyat, mohiyat yashiringan. Bu so‘z o‘rnida yozuvchi “guruh” degan so‘zni qo‘llaganda, bu so‘z o‘rniga tushmasdi, mohiyat ochilmasdi. Mana, mahorat qayerda.

Junaydning aralashmagan narsasi yo‘q. Bu eshikdan chiqsa, boshqa eshikdan kirib kelaveradi, eshik topilmasa, devorni o‘yib ham kirib keladi. Har baloga qobiliyatli. Har ishga suyagi yo‘q. Nima duch kelsa, o‘zini bir urib ko‘radi. “Jamshid Bo‘ron bo‘lasi Junaydga hayrat bilan tikilib qoldi. Ha, buning qo‘lidan keladi partiya tuzmoq! Boshqasi ham!..”

Bunday uddaburonlar keyingi paytlarda yana ko‘paydi. Go‘yo ular hamma narsani eplaydiganday, ularning qo‘lidan kelmaydigan ishning o‘zi yo‘qday, juda faol, jonkuyarday ko‘rinishadi. Lekin, oxir-oqibat, uddaburonning uddalagan biron narsasi yo‘q bo‘lib chiqadi. “Jamshid Bo‘ron bo‘lasining ko‘kragiga yengilgina mushtlab, “Omadingni bersin”, dedi-yu sekin burilib katta ko‘cha sari yurdi. U o‘zini allanimada g‘olib sezardi, ammo ko‘nglida Junaydga nisbatan bir achinish ham bor edi”. Jamshid bekorga jingalaksoch bo‘lasi Junaydga ichida achinish hissini tuymadi. Chunki Junayd qisqa bir zaiflikning uzundan uzun da’vosi edi. Vijdonli odam bunday tomoshalardan zavqlanolmaydi, qiynaladi, iztirob chekadi.

“Bir mahal qayoqdandir Shohiya Amur paydo bo‘ldi. Yengiltakroq libosda: egnida allambalo deb yozilgan qora mayka, tizzasi yirtiq shim. Boshidagi keng-ko‘lam, olabula kepkasini qiyshaytirib kiyib olgan. Sumkachasini yelkasiga tashlab. Beg‘am, betashvish bir xirom bilan”. Bunday ayollar bitta zavodda bitta qolipdan chiqarilgan qo‘g‘irchoqlarday bir-birlariga juda o‘xshaydilar. O‘zlarini tutishlari, gapirishlari ham, noz-u karashmalari, burnidan nariga o‘tmagan maqsadchalari ham bir xil, bir xil. Ularga hayotda ko‘p duch kelasiz. Bir muddat mahliyo bo‘lib turasiz-da, tezda hafsalangiz pir bo‘ladi. Maftunkor jozibaning umri tovoqdagi chiroyday qisqa.

“– Bilmadim, – dedi kulib Jamshid Bo‘ron. – O‘zlariyam ko‘p farishta bo‘lmasalar kerak? Anovi qiz nima qilib yuribdi bu yerda? Inessa Armanding shumi?

– Qaysi qiz? Ha-a, Shohimi? Shohiya Amur. Ommani jalb qilish uchun shunaqalariyam kerak-da, jo‘ram! Qayerdan taniysan uni?”

“Shunaqalariyam kerak-da”. Shu gapning o‘zi ko‘p narsani bildiradi. Meni falon joyga taklif qilishyapti, mensiz bu davra o‘tmay qoladi, deb hovliqib, uch soatlab makiyaj qilib, jilpanglab boradiganlar shunchaki kimlargadir ermak bo‘layotganlarini bilmaydilar. Tag‘in bu kishim aktrisa, rejissyor, ssenarist, buning ustiga, ikkita she’r kitobi chiqqan. “Voy, “Men, men, men”ning ssenariysini onamning eri yozganmi bo‘lmasa! Bilmasmidingiz, she’r kitobim chiqqan-ku, ikkita!”

Ha, asarda har bir personaj o‘z xarakteri, fazilati-yu nuqsoni, jiddiyati-yu bachkanaligi bilan manaman deb ajralib turadi. Ular yozuvchining ixtiyori-yu mayli bilan to‘qib chiqarilmagan, bu obrazlarni hayotning o‘zi romanga taqdim qilgan. Siz har qadamda ularni uchratasiz. Jamiyatning qaysidir jabhasida “javlon urib” yurgan odamlar. Hatto asar boshida yilt etib bir ko‘rinib, keyin yo‘q bo‘lib ketadigan, o‘zicha “Turknoma” atlig‘ buyuk dastan yazayatgan” Selim turk ham xotirangizga muhrlanib qoladi. Asarda umuman ko‘rinish bermaydigan Alikning qiyofasini ham tasavvur qilsa bo‘ladi: “Olamda yo‘q kiyim-boshni egniga ilib, siyrak soqoliga oro berib, allaqanday tayinsiz xalqaro loyihalar bahona mamlakatma-mamlakat izg‘ib yuradigan, bir polyak qiziga uylanib ajrashgan Alik ona tilidan boshqa ko‘p tilni biladi. Otaginasiga tortib juvon tiliga ham mohir. Manovi xonimchamiz bilan ham soz shekilli, “o‘zlarining tili”da chuldirashib yuradi”.

Junayd Jabborzoda, Shohiya Amur, Ramziddin Po‘latovlar poygasida ustoz To‘laganov, Jamshid Bo‘ronlar o‘z-o‘zidan chetga chiqadilar. Ular uyaladilar, or qiladilar. Attangki, ularning safi siyrak, sanoqli. Lekin iddaochilar maydonni hech kimga bermaydi, orini sotib bo‘lsa-da, otini chiqarsa bo‘ldi. Har narsadan bir ilinj izlab, goh u yoqqa, goh bu yoqqa, har o‘tganda bir turlanib, eng chopqir otlarni choptirib o‘taveradilar. Ba’zilari lavozim-u mol-dunyo uchun qulay kelib qolsa hammani ulgurjisiga sotib yuboradi. Otang – bozor, onang – bozor!

TILI BIR ROVIYLAR

Roman yorqin uslubda yozilgan. Matnning o‘ziga xos ohangi ohanrabodek o‘quvchini tortib ketadi. Asarda voqealar uchinchi shaxs va birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Ba’zan ikkinchi shaxs tili ham aralashadi. Lekin shunisi muhimki, mutolaa vaqtida birinchi shaxs roviyligidagi bir bobdan uchinchi shaxs roviyligidagi boshqa bobga o‘tish jarayonida hikoyachilar almashinuvi sezilmay qoladi. Chunki asarda til yaxshi. Ravon. Tishga tegadigan joyi yo‘q. So‘zlar o‘z maromida quyilib keladi. Ayniqsa, Erkin A’zamga xos tagdor jumlalar-u iboralar alohida diqqatga loyiq: “Telefondagi ovozni ajratib bo‘lmasdi: erkak kishiga tegishli desangiz – juda ingichka, ayolmikan desangiz – allaqanday “temir” aralash”, “Qator-qator vazir-u vuzarodan tortib, mashhur xonanda-yu sozanda, shoir-u shuaro, mashshog‘-u qashshoq...”, “Yangi tarix”dagi karnayvoy bola”, “o‘zaro nosamimiy lutf-u havolar”, “qo‘lyozmasining “so‘nggi xollari”, “qozonga yaqin kelsang, “kisht-kisht” deb quvishlar”, “silliqlab-siporishlab o‘tiradi”, “ikki o‘g‘il ham (o‘qishdan) ikki martadan “yiqilib berdi”, “nomi uzun o‘zi kalta film”... Bunday o‘ziga xos, shirali, badiiyat qaymog‘i bilan to‘yintirilgan jumla-yu iboralar asar sifatini oshirgan.

MING XIL MAYDA-CHUYDA GIPERMARKETI

Romanning avj pardasida ijtimoiy tarmoqlarda ustoz haqida tarqalgan xabarlar bugungi tarmoqlar ahvolini aniq ko‘rsatib beradi. Millionlab odamlar ivirsib yuradigan bu tarmoqlarda ne ishlar, ne mish-mishlar, ne qilmishlar urchimaydi, deysiz. Rosti ham bor-u, yolg‘oni undan ko‘p. Bu to‘s-to‘polon ichida yaxshi xabarlar ham suvga cho‘kkan toshday yo‘q bo‘lib ketadi. Allaqanday laykchilar, istashsa, bir odamni bir necha daqiqada badnom qilishlari ham mumkin, istashsa, bir ahmoqdan daho yasashlari ham mumkin. E’tibor qilmaslik kerak, deymiz-u, lekin bu olag‘ovur ham jamiyatda katta jarayonga aylanib bo‘ldi. Endi unga ming xil mayda-chuydalar do‘koni deb qarab bo‘lmaydi. Bu do‘kon zamonning zayli bilan gipermarketga aylangan. Ustoz yo‘qolib qolgandan so‘ng ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarlarga bir quloq tuting: “Kampiri bilan g‘ijillashib qolib, o‘zini jarga otgan ekan, jasadi topilmayotganmish”, “Katta olim bo‘lgani bilan rosa icharkan deng. Dachasi tog‘da ekan, tog‘-toshda mast-alast daydib yurib, jonivorlarga yem bo‘lgandir-da”, “Zo‘r olim bo‘lgani uchun ko‘rolmaydigan hasadgo‘ylar ustidan yoza-yoz qilib, jonidan to‘ydirib yuborishgan-u boshini olib bir yoqlarga ketvorganmish”, “Unda o‘zi to‘g‘risidagi past-baland mishmishlarni o‘qiyverib... yashagisi kelmay qolibdi”...

YETISHMAYOTGAN ODAM

Asarning boshidan oxirigacha nurday o‘tadigan yana bir obraz bor. Bu tog‘a obrazi. Jamshid Bo‘ronni o‘z bolasidan ham yaxshi ko‘radigan tog‘a. Xuddi shu tog‘a asarning boshidan oxirigacha ajib bir ruh berib turadi. U asardagi hamma obrazlardan balandroqda yashaydi. Unda ortiqcha da’voni sezmaysiz, yoqayirtar iddaoni ko‘rmaysiz. Tog‘a timsolida zahmatkash, sodda, samimiy xalqingizning bir bo‘lagini ko‘rganday bo‘lasiz. “Choshgohga yaqin ma’raka tarqab, mozorboshiga borish taklifi chiqdi mendan. Nuqul kimdir yetishmayotgandek, hali zamon kimdir darvozadan kirib keladigandek bo‘laverdi. “Jamshidboy keldima, jiyanginam keldima…” Tog‘am!”

Ha, bunday odamlar hamma joyda hamisha yetishmaydi.

Asarda tog‘a bilan bog‘liq yana bir lavha borki, bu lavha ham o‘sha yillardagi ko‘p kechmishlarga ishora qiladi. Jamshid Bo‘ron tog‘asining ta’ziyasiga qishloqqa borganda atrofga qarab, ko‘nglidan shunday bir o‘y o‘tadi: “Bamisoli shuncha yil mobaynida biror mardum bitta daraxt o‘tqazmagandek, chiqib eshik-derazasini bo‘yamagandek, ko‘cha-ko‘y o‘nqir-cho‘nqir, kechagi zamondan bu yog‘iga asfalt ko‘rmagan, uy-tomlar-chi, past-pastqam! Hamma yoqni balo urib ketgandek vayron-vayrona… Odamlar-chi, odamlar? Bari allaqanday mijg‘ov, ruhsiz, zerikarli. Dasturxon atrofidagi gap-gurunglari ham ho‘-o‘ almisoqdan qolgan diydiyolar”.

IKKI JUMLA VA IKKI DUNYO ORASIDA

Maqolamizning muqaddimasini asar oxirrog‘idagi bir lavha bilan boshlagan bo‘lsak, xotimasida asar boshiga qaytamiz.

Roman nashriyotdan kitobi chiqayotgan Jamshid Bo‘ronning kitob boshida ustoziga bir og‘iz bag‘ishlovi mojarosidan boshlanadi va shu mojaro yakuni bilan tugaydi. Birinchi bobda nashriyot direktori Sanaqulovich: “Kitobingizni, monografiyani ustozingizga bag‘ishlabsiz-ku. Bag‘ishlaganingiz yaxshi-yu, domlaning atrofidagi keyingi gap-so‘zlar... Shundoq katta olim, salkam akademik badnom bo‘lib qoldi-da endi, a, esiz! Qayoqqa ketgani ham noma’lum, dom-daraksiz emish-a? Chet elga qochgan deyishadi, rostmi shu gap?” – degan bir qop somonni pesh-peshlab, bag‘ishlovni olib tashlashni talab qiladi. Jamshid Bo‘ronning ichidan zil ketib, bag‘ishlovni olib tashlashga undagan nashriyot direktoriga: “Kitob meniki, kimga bag‘ishlash o‘zimning ishim”, degan gapi asar oxirida yanada qat’iy vijdoniy tus oladi. Shuncha, bir kitoblik voqealardan keyin Jamshidning nashriyot xodimi – kitob muharririga yuborgan xati shunday: “Muniraxon! Iltimos, kirib kattangga – Sanakulovichingga ayt, bag‘ishlov **qat’iyan** mana bunday bo‘lsin: “Ushbu kitobimni unutilmas Ustozim, akademik Shokir To‘laganovning o‘chmas xotirasiga bag‘ishlayman”. Tamom!”

Romanning yaxlitligi, butunligi ham shundaki, undagi barcha hodisalar ana shu ikki jumlaning orasida bo‘lib o‘tadi. Asar boshida va oxirida aytilgan bu ikki jumla qator voqealarni birlashtiradi, cheki-chegarasi yo‘q da’vo-iddaolar, xiyonatlar, bir-birini sotish mojarolaridan ma’nan butun chiqqan Jamshid Bo‘ronning Shaxsini namoyon qiladi.

Bu e’tirof Ustozning o‘jar, qaysar, bilganidan qolmaydigan, o‘rischa aralashtirib gapiradigan qizi Bibixonimning tilidan Jamshidni otasiga mengzab: “Sizlar asli bir odamsizlar-ku”, deb aytgan gapida yanada aniq ko‘rinadi. Shokir To‘laganovning qizi haqida gap ketganda, bir vaqtlar gazetada rossiyalik bir akademikning qizi bilan bo‘lgan suhbat esga tushadi. Otasi bilan ko‘p masalalarda chiqisholmayotgan qizga muxbirlarning: “Nega otangiz bilan kelisholmaysiz, axir, u mashhur akademik-ku?” – degan savoliga qiz: “Hamma gap shunda, men akademikning qiziman, otam esa oddiy dehqonning o‘g‘li”, deb javob beradi. Garchi Bibixonim qancha murakkab xarakterga ega bo‘lmasin, To‘laganovning ma’naviy muhiti havosidan bahramand bo‘lib o‘sgandi. Bu bahramandlik o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymasdi. Jamshid g‘oyib bo‘lgan domlasini izlab, qiz bilan birga qaytganda, buni anglaydi: “Ilk ko‘rishgan kunidan buyon bir-biriga yotsirab yurgan ikki odam bugun aka-singil bo‘lib qaytarkanmiz, qizning boyagi gapi xayolimdan ketmasdi: “Sizlar asli bir odamsizlar-ku...”

Romanda teran ramziy ishoralar bisyor. Bu ramzlarni sharhlash alohida mavzu. Ustozning yo‘qolib qolishi ham aslida ramziy ma’noga ega. Bu hodisa zimnida jamiyatda boy berilayotgan qadriyatlar, tutumlar, halol fazilatlar, mahv bo‘layotgan tafakkur, yo‘qolayotgan vijdonga ishora borday. To‘satdan g‘oyib bo‘lgan ustoz Shokir To‘laganovdan Jamshid Bo‘ronga kelgan oxirgi SMS xabar shunday yakunlangan: “Meni qidirmanglar, yer ustida qiladigan ishim qolmadi...” Bu og‘ir gap. Shukur Xolmirzayevni o‘limidan oldin ko‘rgani borganimda, uning horg‘in nigohlaridan shu ma’nodagi gapni o‘qiganman. Yana bu gap Abdulla Oripovning bir she’rini eslatadi:

Mening Yer ustida
tanishlarim kam,
Mening Yer ostida
do‘stlarim ko‘proq.

KIBRI HAVOMI, KIBRI DA’VO?

Maqolaga “Da’voning davosi ne?” deb nom berdik. Da’voda mudom xatar borligi rost. Zero, bobolarimiz to‘qigan “kibr-u havo” iborasini bizning zamonamizda “kibr-u da’vo” deb o‘zgartirsak, mantiqdan uzoqlashmaymiz. Agar da’vo haddan oshib ketsa, xiyonatlar, sotqinliklar, hasad, tubanliklarga manba bo‘ladi. Xo‘sh, xulosa nima? Taxminiy bo‘lsada, da’voning davosi bormi? Bu haqda bir narsa deyish qiyin. Bir shoir aytganiday: “Dardning o‘zini ko‘rsatib berish ham katta gap”. Faqat shuni qo‘shimcha qilish mumkin, uzun da’vodan oldin qisqa zaiflik bor. Har kim Hakim Termiziy uqtirgan “qisqa zaiflik”ni angladimi, bas, kibr-u da’vo o‘z-o‘zidan chekinadi. Yana yapon shoirining bir satri esga tushadi: “Men ojizman va avaylayman o‘zimning ojizligimni”. O‘zining ojizligini avaylagan odam kuchli bo‘ladi.

Eshqobil SHUKUR

YANGILIKCHILAR – YAXSHILIKCHILAR

JADIDLAR SHARQIYSI

1

Bu olamda har yil o‘zicha yangi,
Yangilik bor yilning to‘rt faslida ham.
Yangidir, shuningdek, hafta hamda kun,
Kunning ichidagi har lahza, har dam.
Faqat buni ko‘rmoq, bilmoq, anglamoq
Hammaga ham nasib etavermaydi.
Ko‘rgan, anglaganlar, bilganlar – baxtli,
Baxt – oz, hammaga ham yetavermaydi.

2

Biz – Cho‘lpon, Qodiriy, Avloniy, Fitrat…
Yuz mingmiz, sanamoq emasdir oson.
Zamon tan olmadi, boqmadi bizga,
Boqmadik bizlar ham beun, beomon.
Qurol-yarog‘-la xalq qahramonlari,
Biz qog‘oz-qalam-la jang qildik tun-kun.
Jisman mahv etildik, ruhan sog‘-omon,
Ibrat bo‘ldik avlod-avlodlar uchun.

3

Ha, biz yangilovchi, yangilikchilar,
Ya’ni jadidlarmiz! Ona xalqini
Oldinga boshlagan. Himoya qilgan
Millat huquqini, millat haqqini.

Kimni va nimani yangiladik, xo‘sh?
Kimdan va nimadan himoya qildik?
Mutelikda yashash mumkindir balki,
Qoloqlikda yashab bo‘lmaydi, bildik.

Bilishimiz kerak edi biz, axir,
Daho ajdodlarning vorislarimiz.
Qur’oni Karimga asoslangandi
Qilgan, qilolmagan bor ishlarimiz.

Dushman bo‘la turib o‘zingiz elga,
Aybladingiz bizni “xalq dushmani” deb.
O‘zbeklar ishonar dedingiz bunga,
Qo‘ygan dedingizmi xalq esini yeb?

Bu ham yetmaganday, qamab, ottirib,
Shahid ayladingiz tutib birma-bir.
Bilmadingiz jannat bog‘chalariday
Gullarga burkangan biz yotgan qabr.

Demak, biz – barhayot, siz esa yo‘qsiz,
Yo‘qdir yolg‘on-yashiq shiorlaringiz.
Yozganlari axlat uyumlarida,
Yo‘q sizni madh etgan shoirlaringiz.

Va oson bo‘lmadi ziyo tarqatmoq,
Qaqnus qush singari yoqildik, yondik.
Tug‘ildik qaytadan o‘z kulimizdan,
Siz bizdan emas, yo‘q! Biz sizdan tondik.

Taraqqiyot uchun bo‘lsa bir nima,
Tatbiq etish uchun xalq hayotiga,
Osmonga ham chiqar edik, ehtimol,
Minib tasavvurning uchqur otiga.

Sizga qizig‘i yo‘q bu gaplarning hech,
Qullar kerak edi sizga, ko‘p qullar.
Erkakdir, ayoldir – farqi yo‘q sira,
Ishlasa bas edi oyoqlar, qo‘llar.

“Boshlar-chi?” – dedik biz,
– “Axloq-chi? Ong-chi?
Muhabbat, hayajon, oriyat, hayo?”
Sizga – Ishchi-dehqon hukumatiga
Yov bo‘ldi yurtga kim tarqatsa ziyo.

“Ziyoli – ziyonli!” – degan gapni ham
Siz o‘ylab topgansiz – noshud, nobakor.
Bor olam ziyoga talpingan chog‘da,
Yo‘lto‘sar bo‘lmoq – bu qay rusumda bor?!

4

Siz yoqqan, yo‘qotgan kitoblar o‘rni
O‘yilgan ko‘zlardek qoraygandi, bas.
Yangi alifboda qancha hikmatni
Tiriltirdik takror, qalbga hamnafas.

Inchunin, imloni o‘zgartirish-la
Qila olmadingiz xalqni savodsiz.
Imlo bilan birga o‘zgarmadi el,
Qoldi dilda sobit o‘sha aziz so‘z.

Oradan bir asr vaqt o‘tib, mana,
Yana yangilandi millat va Vatan.
Yangi O‘zbekiston tan oldi bizni,
Na-da O‘zbekiston, dunyo oldi tan.

5

Dunyo tan olmoqda O‘zbekistonni,
Bizning mamlakatni – jannat makonni.
Hayratga solmoqda yangilanib U
Qartaygan, shalag‘i chiqqan jahonni.

Hissamiz bor bunda biz – jadidlarning,
Meva berar chekkan azoblarimiz.
Yo‘lchi yulduz bo‘lib porlaydi, albat,
Avlodlar qalbida biz qoldirgan iz.

Siz-chi? Qoralanib qaytadan, hayhot,
La’nat botqog‘iga botayotirsiz.
Uvada jandangiz yelkaga tashlab,
Unutilish tomon ketayotirsiz.

QODIRIYNING VODIY SAFARI

“Men ushbu kitobka material yig‘ish uchun Qo‘qon bordim, yashagan kishilar bilan so‘zlashib yurdim”.

Abdulla QODIRIY

Shomda kirib bordi vodiyga adib.
Namoz uchun masjid qolganmi biror?
So‘ramoqqa tirik jon ko‘rinmadi,
Azon tovshin kutib, vaqt o‘tdi bekor.

Ot ustida ado etdi noiloj
Ibodatin qibla tomon burib yuz.
“Bu el, bu yurt qanday topadi rivoj?
Din-u e’tiqodsiz iymon bo‘lar sust”.

Yo‘q, adashgan ekan, chiqdi yo‘lidan
Yashagan kishilar xon zamonida.
Nafaqat yo‘lidan, chiqdi ko‘nglidan,
Mehmon qildilar qalb xonadonida.

Adibni vodiyga yetaklab borgan
Maqsad nima edi, dard nima edi?
Mustabid davrga yo‘l ochib bergan
Xonlik qanday edi – bilmoqchi bo‘ldi.

Qonga botirilgan muxtoriyat-chi?
Nega bu xususda kimsa so‘z demas?
El-u yurt qaqshadi. Adabiyot-chi?
Nega u mum tishlar? Bu – to‘g‘ri emas!

Oh chekmoqda, axir, millatdoshlarim,
Dindoshlarim, qadim o‘zbegim, jonim.
Ko‘zimdan ichimga oqar yoshlarim,
Ichimdan tashimga chiqmaydi qonim.

Ayb ularda emas, hukmronlarda
Va shiorlarida erur ularning,
Jaholatlarida, yolg‘onlarida...
Men yozishim kerak avval shularni.

G‘anim istibdodi, Toshkandan keyin
Qo‘lin Xo‘jandga ham cho‘zgan pallalar
Demay: “Qo‘qonga ham bo‘lar xo‘jayin”,
Qilsa bo‘lmasmidi unga hamlalar?!

Yo‘q, o‘rniga, yoqay deya xon yovga,
E, voh, mansab-amal ta’masida go‘l,
O‘z ona xalqini oldi burovga,
Aytsin deb bosqinchi “Bu xon – qattiqqo‘l!”

Ko‘rinay deb yana “madaniyatli”,
Binolar qurdirdi xalq hisobidan.
Ariq ham qazdirdi “Xon ariq” otli,
Ulus qoni oqdi ariq tubida.

Alloh peshonaga yozgani – Vatan
Mustamlaka bo‘ldi. Baribir ham, xon
Yayramadi, tushdi ko‘hna taxtidan,
Qul bo‘ldi kofirga ahli Turkiston.

Hamon shunday. Biroq diyorimizda
Tuzum-u siyosat bobida xonni,
Mustabid g‘animni etguvchi izza
Mirzo Anvarlar ko‘p ekan iymonli.

Chirkin zamonasi fojialari
Asosiga qarshi ongli kurashgan
Yusufbek hoji-yu, zamon sarvari –
Otabekday mardlar ko‘p ekan jo‘shgan.



Shukur QURBON,
“Do‘stlik” ordeni sohibi

Ha, shunday, moziyda, tariximizning
Eng kirlik va qora kunlarida ham
Muhabbat, sadoqat hamda nomusning
Parilari bo‘lmish – hayoli, o‘ktam –

Kumush-u Ra’nolar yashab o‘tkanin
Yozgan-bitganimda ko‘rsatishim shart:
Asal bo‘ldi – zahar-zaqqum yutkani,
Muslimayi jasur, mo‘minayi mard…

Va bilsin, anglasin zamondoshlarim –
Loqayd va beparvo yashab bo‘lmaydi.
“Baxtlisan!..” – qotirar zamon boshlarni,
Qotgan boshlar o‘truk, sayoz o‘ylaydi.

Ayting, qonda mavjud xislat yo‘qolmas,
Sho‘ro davrida ham yurtparvarlar bor.
Ular ham bir kun bosh ko‘tarmay qolmas,
Bosh ko‘targan kabi qalbda g‘urur, or.

Yetarmanmi, yo‘qmi, u kunga, bilmam,
Bilaman va lekin keladi u kun.
Shuning-chun sho‘roni nazarga ilmam,
Suzaman oqimga qarshi shuning-chun.

Keldi shu qarorga vodiyga borib
Adib yurib unda yashaganlar-la.
Muxtoriyat, deya xalqni erk sari,
Abadiyat sari boshlaganlar-la.

YANGI KITOBLAR

SHE’RDA QOLGAN YURAK

Olmos mening yuragim,
Tolmas mening yuragim.
Kim aytadi she’rimda
Qolmas mening yuragim?



Mana shu to‘rt qatorgina she’r necha-necha avlodlarning xotirasida muhrlanmagan, deysiz. Muhimi, taniqli bolalar shoiri Qudrat Hikmatning O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan zamonaviy dizaynga ega yangi to‘plami mana shunday ta’sirchan she’rlarga boy. Yoshi katta insonlar bu she’rlarni o‘qib, beg‘ubor bolaligini eslasa, jajji o‘quvchilar samimiy she’riyat bilan uchrashib, betakror taassurotlarga ega bo‘ladilar.

O‘tgan asrning 50–70-yillarida shoirning “Mening Vatanim”, “Baxtli bolalar”, “Obodlik”, “Do‘stlik”, “Uch o‘rtoqning sovg‘asi”, “Nevara mehri”, “Alisher va kitob”, “Soatjonning soati”, “Toshbaqalar hujumi”, “Shamol botir”, “O‘g‘lim bilan suhbat” singari o‘ndan ortiq to‘plamlari keng ommalashgan. “Olmos mening yuragim” nomli kitobda o‘sha to‘plamlardagi eng sara she’rlar jamlangan.

QAHRAMON O‘SMIRLAR



Ayni paytda zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘smirlar uchun yaratilgan asarlar nihoyatda kamyobligi sir emas. Shu ma’noda, yosh ijodkor Mehrixon Ortiqovaning “Jumboqlar kundaligi” asari ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Fantastik roman sifatida taqdim etilgan mazkur asarning asosiy qahramonlari o‘smirlar bo‘lib, ularning aql bovar qilmas sarguzashtlari qiziqarli tilda hikoya qilinadi.

“– Anunnakilarni fosh qilish shunchalik oson ish deb o‘ylaysizmi? – birdan suhbatga aralashdi anchadan beri jim o‘tirgan g‘ayrioddiy mehmon.

– Muddaoga o‘tadigan bo‘lsak, biz ham shogirdim bilan Reptiloidlarni o‘rganyapmiz, – hamrohini qo‘llab-quvvatladi professor. – Avvaliga buning iloji yo‘qdek tuyulardi, ammo kecha sizning sharofatingiz bilan mana buni olib qochishga ulgurdik.

U shunday deb stol ustida yopib qo‘yilgan matoni ko‘tardi...”

Xo‘sh, fosh qilinmoqchi bo‘layotgan anunnakilar, professor shogirdi bilan o‘rganayotgan reptiloidlar kimlar? Stol ustida yopib qo‘yilgan sirli narsa nima? Albatta, o‘quvchilar bu kabi savollarga kitobni o‘qibgina javob topadilar. Ushbu kitob ham Yozuvchilar uyushmasi homiyligida nashr etilgan.

Nigina ISKANDAROVA

TAQDIM

NASRIMIZ NAMUNALARI



Abdurasul ESHONBOBOYEV,
adabiyotshunos


Taniqli navoiyshunos Qodirjon Ergashev “Muharrir” nashriyotida chop etilgan “XV-XVII asrlarda tarixiy nasr taraqqiyoti” nomli monografiyasida tarixiy nasrning Sharqda paydo bo‘lishi, xususiyatlari, asosiy rivojlanish tendensiyalarini arab, fors tilidagi manbalar, ularga oid ilmiy tadqiqotlar asosida jiddiy tarzda yoritishga muvaffaq bo‘lgan. To‘rt bobdan iborat kitob o‘zbek adabiyoti tarixida nasrning yuzaga kelishi va taraqqiyoti, mavzular ko‘lami, bu jarayonda Alisher Navoiyning o‘rni kabi qator nazariy masalalarni qamrab olgan.

Tadqiqotchi Hazratning nasriy asarlari o‘zbek adabiyotida tarixiy nasrning yuzaga kelishida muhim o‘rin tutganini ta’kidlagani holda, Navoiyga qadar ham turkiy tilda tarixiy asarlar yaratilgani, biroq bizgacha yetib kelmaganini qayd etadi.

Bundan tashqari, Qodirjon Ergashev “Tarixi anbiyo va hukamo”-ni tahlil qilar ekan, asar payg‘ambarlarga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda hakimlar – faylasuflar haqida so‘z borishi uning “fan tarixi yuzasidan ham” alohida ahamiyatga molik ekaniga e’tibor qaratadi. Asar badiiy tasvir vositalarining keng qo‘llanishi, mavzuning qamrab olinishi hamda lisoniy tarafdan atroflicha tadqiq qilingan. “Tarixi muluki ajam” asarida davr an’anasidan kelib chiqib ko‘plab mifologik personajlar tarixiy shaxslar sifatida ham talqin qilingan. Olim Navoiy ma’lumotlari bilan zamonaviy tarixshunoslik ilmi qabul qilgan xronologiyani izchil chog‘ishtirib, ayrim ma’lumotlarni oydinlashtiradi.

Monografiyaning ikkinchi bobi “XVI asrning boshida tarixiy nasrda yuzaga kelgan yangi tamoyillar. “Tavorixi guzida – Nusratnoma”, “Zubdat ul-osor” asarlari” deya nomlanadi. Unda mazkur davr adiblari ijodining o‘ziga xosliklari, adabiyotda ko‘zga tashlangan yangi hodisa va tamoyillar, eng avvalo, jamiyatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, ularning xalq ongi va tafakkuriga ko‘rsatgan ta’siri hamda yangi davr talablari bilan bog‘liqligi qiziqarli yoritiladi. Olim “Boburnoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye”, Fayzulloh ibn Ro‘zbexonning “Mehmonnomayi Buxoro”, Binoiyning “Shayboniynoma” singari asarlari, bundan tashqari, ayni shu davrda yaratilgan badiiy nasrning go‘zal namunasi bo‘lmish Xojaning “Gulzor” va “Miftoh ul-qulub” asarlari tahliliga ham, muxtasar bo‘lsa-da, to‘xtaladi, ularning adabiy qiymatini aniq ko‘rsatadi.

Monografiyaning navbatdagi bobi “Memuar-avtobiografik janr. “O‘tamish Hoji tarixi” asari. Tarixiy nasrning tarjima asarlar hisobiga boyishi” deb nomlangan. Muallif Movarounnahrda yuz bergan ulkan o‘zgarishlar mintaqa hayotining barcha jabhalariga beistisno ta’sir qilgani va bu holat mazkur davrda yaratilgan ilmiy, badiiy asarlarda aks etganiga urg‘u beradi: “Faqat XVI asr nasrining emas, umuman, o‘zbek va jahon adabiyotining shoh asarlaridan biri bo‘lib qolgan “Boburnoma”ning yaratilishi ham ana shu tamoyillar bilan bog‘liq edi. Bu asarning maydonga kelishi XVI asr o‘zbek nasrida yangi bir hodisa – tarixiy-memuar janr paydo bo‘lganidan dalolat qiladi”. “Boburnoma” haqida “ko‘p va xo‘b” yozilgan va yozilmoqda, biroq Qodirjon Ergashev asarning kamroq e’tibor qaratilgan qirralarini “o‘zbek tarixiy nasri taraqqiyoti aspektida ko‘rib chiqish va uning ayrim




o‘rganilmagan jihatlarini, muammoli masalalarini yoritib berishni” o‘z oldiga ilmiy muammo sifatida qo‘ygan va, aytish mumkinki, buning uddasidan chiqa olgan.

Kitobning so‘nggi bobi “Abulg‘oziy Bahodirxonning tarixiy nasr rivojiga qo‘shgan hissasi. “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarining tarixiy nasr va adabiy yodgorlik sifatidagi xususiyatlari va ahamiyati” deb nomlanadi. Har qanday asar muayyan davrning hosilasi, mevasi ekanini tadqiqotda doimo bosh prinsip sifatida bilgan muallif bu ikki yodgorlikning yuzaga kelish sabablarini quyidagicha izohlaydi: “XVII asrdagi siyosiy beqarorlik, murakkab ijtimoiy ahvolning fan va adabiyotga ko‘rsatgan salbiy ta’sirining natijasi o‘laroq tarixnavislikda yuzaga kelgan bo‘shliq va uni to‘ldirish zarurati Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarining yaratilishi uchun turtki bergan omillardan biri edi”. Tadqiqotchi ushbu asarlarning tarixiy va adabiy manba sifatidagi ilmiy ahamiyatini dalillar bilan isbotlab bergan.

Monografiya mavzu doirasida amalga oshirilgan tugal tadqiqot hisoblanadi. Biz esa imkoniyat doirasida ayrim jihatlariga to‘xtaldik, xolos. Muhimi, muallif media maydonda javlon urmaydi, ilmiy haqiqatni o‘rinsiz hayajonga berilib baland ovozda “e’lon” qilmaydi, aksincha, vazmin izlanadi, qidiradi, topadi va isbotlaydi. Kitobni o‘qigan o‘quvchi beixtiyor muallif taqdim qilgan jarayonning ishtirokchisiga aylanadi, uning dalillash mahoratidan zavq oladi. Ifodada ilmiy akademizmga qat’iy amal qilish (afsuski, vaqt o‘tgani sayin bunday olimlar safi siyraklashmoqda), faktlarga nisbatan halol va tanqidiy munosabat, keng mushohada-mulohaza, mantiqiy izchillik kabi xislatlar olim ilmiy faoliyatiga xosdir.

Kezi kelganda bir mulohazani aytib o‘tish joiz. Monografiyaga manbalarning batafsil ilmiy tavsifi hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatining to‘liq ilova etilishi kitobning ilmiy qiymatini yanada oshirgan bo‘lur edi. Biroq bu mulohaza monografiyaning umumiy saviyasi va sajiyasiga soya sololmaydi, yuksak ilmiy darajada bajarilgan ish bilan muallifni hamda mumtoz adabiyotimiz muhiblarini qutlab qolamiz.



Men jannatni hamisha kutubxonaga o‘xshagan bir joy deb tasavvur qilganman.

Xorxe Luis BORXES

OLAM OLIMI



Yoxannes SHTARK

atom fizikasi rivojiga hissa qo‘shgan nobelchi

HAYOT YO‘LI

Yoxannes Shtark 1874-yil 15-aprelda Germaniyaning Shikkenxof shahrida tug‘ilgan. Bayroytdagi gimnaziyada va Regensburgda tahsil olgan. Oliy ta’limni Myunxen universitetida olgan. Ish faoliyatini Myunxen universitetining Fizika institutida boshlagan. Faoliyati davomida Gottingen universiteti, Gannover va Axendagi Texnik oliy o‘quv yurtlari, Greifsvald universiteti va Vyurtsburg universitetining Fizika institutida ilmiy va pedagogik faoliyat olib bordi.

U professor sifatida ishlab, fizika, xususan, elektr razryadlari, gazlar fizikasi, spektroskopiya va kanal nurlari bo‘yicha tadqiqotlar qildi. Uning ilmiy faoliyati Germaniya fizika maktabining muhim yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lib, XX asr boshlarida atom fizikasi shakllanayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi.

Shtark 1957-yil 21-iyunda Germaniyaning Traunshteyn shahrida vafot etgan.

ATOMLAR VA SPEKTRLAR

Olimning asosiy tadqiqotlarini tushunish uchun atomlarning yorug‘lik chiqarishi haqida qisqacha to‘xtalish lozim. Atom tarkibidagi elektronlar ma’lum energetik holatlarda bo‘ladi. Elektron bir energetik holatdan boshqasiga o‘tganda, muayyan energiyaga ega bo‘lgan foton chiqarishi yoki yutishi mumkin. Bu jarayon atom spektrida ma’lum spektral chiziqlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun spektral chiziqlarni o‘rganish orqali olimlar atomning ichki tuzilishi haqida ma’lumot olishlari mumkin. Shtark ana shu spektral chiziqlarga tashqi elektr maydoni qanday ta’sir qilishini tadqiq qildi.

SHTARK EFFEKTI

Shtark elektr maydoni ta’sirida atomlar chiqaradigan spektral chiziqlarning o‘zgarishini kuzatdi. Kuchli elektr maydoni ta’sirida ayrim spektral chiziqlar siljishi yoki bir nechta komponentlarga ajralishi mumkinligi aniqlandi. Oddiy qilib aytganda: elektr maydoni, atomdagi elektronlarning energetik holatlariga ta’sir qiladi, energetik sathlar o‘zgaradi, spektral chiziqlar siljiydi yoki ajraladi.

Shtark effekti olimlarga atomlarning energetik tuzilishini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi. Keyinchalik bu hodisa kvant mexanikasi nuqtayi nazaridan yanada chuqur tushuntirildi.

Shtarkning ilmiy faoliyati faqat elektr maydonidagi spektral o‘zgarishlar bilan cheklanmagan. U kanal nurlarini ham tadqiq qilgan. Kanal nurlari – gaz razryadi jarayonida hosil bo‘ladigan musbat zaryadlangan zarrachalar oqimi bo‘lib, ular XIX asr oxiri va XX asr boshlarida atom fizikasini o‘rganishda muhim eksperimental obyektlardan biri edi. Shtark kanal nurlarida harakatlanayotgan zarrachalar bilan bog‘liq Dopler effektini ham tadqiq qilgan. Dopler effekti umumiy ma’noda manba yoki kuzatuvchi harakatlanganda to‘lqin chastotasining kuzatiladigan o‘zgarishidir.

E’TIROF

1919-yilda Yoxannes Shtark fizika bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. Mukofot unga kanal nurlaridagi Dopler effektini kashf etgani va elektr maydonida spektral chiziqlarning ajralishini kashf qilgani uchun berilgan. Bu mukofot Shtarkning atom fizikasi va spektroskopiya sohasidagi ilmiy ishlari xalqaro miqyosda tan olinganini ko‘rsatdi. Uning kashfiyotlari o‘sha davrda atomning ichki tuzilishi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga xizmat qildi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

Boshlanishi 1-sahifada.

BOLANI IT DAN KIM HIMOYA QILADI?



Muyassar Ibrohimova: – *Bola ba’zan ijtimoiy tarmoqlar va platformalar qurshovida soatlab qolib ketadi.*



Bu vaqtda uning miyasida, ruhiyatida nimalar sodir bo‘ladi? 16 yoshgacha bo‘lgan farzandlarimizning ruhiyati internet va texnologiyalar bosimiga qanchalik tayyor?

Dilfuza Jumayeva: – Har bir bolaning o‘z tabiatiga mos ichki intizomi bor. Agar bu ichki intizom xavfsiz muhit bilan birga o‘smasa,



bolaga, albatta, bosim beradi. Axborot oqimining shiddati tez, ko‘rinishi turfa va natijasi kutilmagan. Farzandlarimizga birinchi o‘rinda oila va maktabda xavfsiz muhit kerak. Har bir bolaning bunga ichki ruhiy ehtiyoji bor.

Xavfsizlik bu – kichik yoshdagilarga hali noma’lum bo‘lgan voqea-hodisalarni ma’lum payt cheklash, sog‘lom chegara qo‘yish, buning o‘zi nimaligi va qanday xavf keltirishini tushuntirish, ayni paytda, bemalol harakatlanishi uchun hudud qoldirish. Telefon ishlatishni emas, me’yoridan ortiq foydalanishni tanqid qilish kerak. Farzandimizga mobil qurilmalarni dushman sifatida ko‘rsatib qo‘ymaslik zarur. Chunki ular vaqti kelib, gadjetlar dunyosiga qadam qo‘yadi. Ayniqsa, bugungi axborot va sun’iy intellekt asrida busiz na ta’lim, na ish bitadi. Bolaga telefon oldida o‘zini qanday boshqarishni o‘rgatish, unga yordam berish – eng to‘g‘ri yo‘l. Cheklov chora emas, siz qo‘lidan olib qo‘yganingiz bilan o‘rtog‘i yoki tanishining telefonidan foydalanaveradi. O‘g‘il-qizlarga bir umr qo‘riqchi bo‘lolmaymiz, lekin to‘g‘ri berilgan tarbiya ularning ishonchli himoyachisi bo‘lishi, shubhasiz.

Masalaning o‘q ildizlaridan biri: agar ota-onaning mehri, e’tibori yetishmasa, bola ehtiyojini telefon, internetdan izlaydi.

Muyassar Ibrohimova: – *Afsuski, bugun bolam yig‘lamasin, deb erta yoshdan telefonga o‘rgatayotgan ham o‘zimiz…*

Dilfuza Jumayeva: – Shunday. Gadjetlarda hissiy va rang-barang kadrlar bisyor. Ular hayotda ham bor, faqat unchalik tez va turfa emas. Bola qo‘liga telefon olganida o‘qish, o‘rganish ishtiyoqi pasayadi. Dofamin miya uchun juda ham muhim gormon. Kadrlarning tezligi, xilma-xilligi, ko‘pligi bolaga juda tez dofamin beradi va tez to‘yintiradi. Ular katta bo‘lgani sari bu hisni hamma joydan qidiradi. Eng achinarlisi, bu ehtiyoj keyinchalik nosog‘lom munosabatlar, ichkilikbozlik, kashandalik, bangilikka ham aylanishi mumkin.

Ilm olish, mehnat qilish, uzoq muddatli munosabatlarga kirishish vaqt, mas’uliyat talab qiladi. Ammo virtual dunyo va vizual qoniqishga o‘rgangan avlodda to‘rt yil oliy ta’lim olish, bir necha yil ishlabgina o‘z o‘rnini topish, turmush qurish, do‘stlashish, hamkorlik qilish kabi o‘n yillar, umrbod davom etadigan munosabatlarga toqatsizlik shakllanadi. Yoshlarning sintetik giyohvand moddalarga ruju qo‘yishi, yosh oilalar o‘rtasidagi ajrim, yigit-qizlarda yolg‘izlik, stress va depressiya kuzatilayotgani, avlodlar o‘rtasidagi masofaning jarlikka aylanib borayotgani – barchasining zamirida ko‘z ochib telefonni ko‘rgan avlodning Internetdan topgan “foydasi” yotibdi.

Muyassar Ibrohimova: – *Isroil aka, Siz yigirma yildan buyon pedagogika sohasi ichidasiz. Psixologimiz muammo va oqibatlarini aytdi. Siz bilan yechim haqida suhbatlashsak. Sizningcha, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida telefonni butunlay cheklash muammoga yechim bo‘la oladimi?*

Isroil Tillaboyev: – Hozirgi kunda bir yuz to‘rtta davlat maktab hududida qisman yoki to‘liq telefonni taqiqlagan ekan. O‘quvchilar ko‘p vaqtini maktabda o‘tkazadi.



Bu paytda ota-onadan ko‘ra o‘qituvchiga, maktab jamoasiga mas’uliyat yuklanadi. Bilasizmi, telefondan foydalanish borasida qat’iy qonun-qoidalar ishlab chiqilmagani uchun maktab jamoasi ham ikkilanib qolgan. Hozircha, asosiy masalalardan biri maktabda direktordan tortib oddiy xodimgacha bu borada namuna bo‘lishi kerak.

Istaymizmi-yo‘qmi, telefondan foydalanish madaniyati kattalarda ham to‘liq shakllangan, deya olmayman. Hatto, dars jarayonida ham attestatsiya testlarini yechib yoki turli videolar ko‘rib o‘tirgan pedagoglar borligini rad etib bo‘lmaydi.

Bugun o‘quvchidan talab qilish uchun ma’muriy bazani mustahkamlab qo‘yish zarur.

Dilfuza Jumayeva: – Shu bilan birga, ota-ona ham bu borada ta’lim muassasasiga ko‘makchi bo‘lsin. Masalan, qizimning maktabida uyali aloqa vositasidan foydalanish umuman mumkin emas. Uyda ham shunga amal qilamiz. Bu borada, avvalo, o‘zimiz – kattalar o‘rnak bo‘lamiz. Dasturxon atrofida, farzandlar bilan suhbat davomida, sayr va sayohatlarda telefonni chekkaga surib qo‘yamiz. Farzandimizning ustidan hukmron bo‘lish emas, ular bilan birga qoidalarga rioya qilishimiz lozim. Shunda bolaning ham tartibga kelishi osonlashadi, u o‘zini tahqirlangan, kamsitilgan yoki mahrum qilingan, deb o‘ylamaydi.

Muyassar Ibrohimova: – *Davlat 16 yoshgacha bo‘lgan bolaning ijtimoiy tarmoqdan foydalanishini cheklashga haqlimi? Mobil qurilmalardan butkul cheklash bolaning axborot olish huquqiga zid kelmaydimi? Ixtiyor aka, bu savollar bilan Sizga murojaat qilamiz, avvalo.*

Ixtiyor Abdurazzoqov: – Axborot asrida hamma yangilikni imkon qadar ertaroq, boshqalardan oldinroq olishga harakat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida 16 yoshga to‘lmagan yoki voyaga yetmagan shaxslarning axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari huquqiy jihatdan tartibga solingan. Yaqinda Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri ham maktab yoshidagi bolalar uchun telefondan foydalanish masalasida alohida normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish masalasi ko‘rilayotganini aytdi. Asosiy maqsadimiz 16 yoshgacha bo‘lganlarning ommaviy axborot vositalaridan ma’lumot olishi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini to‘xtatish emas, filtrlash bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni bor. 2018-yil 24-martdan kuchga kirgan bu Qonunning 16-moddasida axborotlar sinflashtirib berilgan. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2012-yilda



chiqarilgan “Ta’lim tashkilotlarida mobil qurilmalardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida qaror bor. Allaqachon qonunchiligimizda bu masalani tartibga solish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar bazasi bor. Lekin suhbatdoshlarimiz aytganidek, bu faqat bir tomonning masalasi emas.

Dilfuza Jumayeva: – Maktabda telefondan foydalanishni qat’iy tartibga solish shart, albatta. Mutlaq taqiq esa olti yoshgacha kerak, deb o‘ylayman. Chunki bu davrda bola o‘zini boshqara olmaydi.

Ixtiyor Abdurazzoqov: – Yana bir asosiy muammo: axborot olishga nisbatan immunitet sustligi. Ko‘pchiligimiz ko‘rayotganlarimizni foydali, foydasiz, haqiqat yoki feyk ma’lumotga ajratmaymiz, saralamaymiz. Aslida, OAVdagi materiallarda ham qaysi auditoriya va yosh uchun mo‘ljallangani qat’iy ko‘rsatilishi shart. Afsuski, bunday belgi kamdan kam kontent va ko‘rsatuvlarga qo‘yiladi. Shu jihatdan, axborot taqdim qiluvchilarga ham majburiyat, qoidalar kiritishimiz kerak.

Muyassar Ibrohimova: – *Doimiy ravishda boshqalarning chiroyli hayoti, muvaffaqiyati va tashqi ko‘rinishini, ideal hayot tasvirini ko‘rish bolaning o‘ziga bo‘lgan bahosiga qanday ta’sir qiladi?*

Dilfuza Jumayeva: – Bunday holat bola qadr-qimmatini, ichki mezonlarini tashqi reaksiyaga bog‘lab qo‘yadi. Ya’ni, obunachilar, layklar, ko‘rishlar soni, tashqaridan kelayotgan baho farzandlarimizda qachonki menga layk bosishsa, qabul qilinaman, tan olinaman, degan fikrni uyg‘otadi. Bolaning o‘zini baholashi, o‘zini qanday his qilishi va kayfiyati tashqi omilga bog‘liq bo‘lib qoladi va bu qaramlikka olib keladi. Unga reaksiya berilmasligi yoki past baho berilganda, buni juda og‘riqli qabul qiladi va yopilishiga, o‘zini qabul qilolmasligiga sabab bo‘ladi.

Isroil Tillaboyev: – Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir salbiy tomoni – aksar o‘quvchilar o‘z idealini turli bema’ni qiliqlari bilan yuz minglab auditoriya yig‘gan yoshlar orasidan topyapti. Yaqinda bir video ko‘rdim. O‘smirlar shunday “qahramon”lari izidan suratga tushish, birga o‘ynash uchun yig‘lab yuguryapti.

Bugun telefonni yig‘ishtirish bilan ish bitmaydi. Maktab o‘quvchilari orasida xalqaro olimpiada g‘oliblari ham ko‘paymoqda. Afsuski, ularni hech kim tanimaydi. O‘qituvchilar mana shunday bolalarning shaxsiy sahifalarini yaratib, hayot tarzi, o‘qish tartibini ko‘rsatishiga ilhomlantirishi kerak.

Dilfuza Jumayeva: – Har bir bolaning ichida qahramonga intilish hissi bor. O‘g‘il bola uchun otasi, qiz bolaga ona qahramon bo‘la olsa, nur ustiga nur. Bunday munosabatda ham do‘stlik, ham ishonch, ham xavfsizlik bo‘lib, ota-ona va farzand aloqasi yanayam iliqlashadi. Qabulimga keladiganlarning aksariyatida ota-onasidagi muammo takrorlanadi. Ko‘plab bolalarda namuna, ergashish uchun qahramon yo‘q. Ular ulg‘aygungacha, ijtimoiy tarmoq yoki boshqa yerdan qahramonini topadi va unga ishonadi.

Muyassar Ibrohimova: – *Ota-onaning nazorati qachon g‘amxo‘rlikdan nazoratga aylanadi?*

Dilfuza Jumayeva: – Telefon – bolaning shaxsiy buyumi. Lekin uni yashirin yo‘llar bilan emas, birgalikda ko‘rish mumkin. Shunda ona farzandining kimni kuzatayotgani va bu qanday oqibatlarga olib kelishini tushuntiradi.

Telefonni cheklamoqchi bo‘lgan inson avval o‘zi bola bilan shug‘ullanishga tayyor bo‘lsin. Ham telefonni cheklab, ham ota-onaning muloqoti bo‘lmasa, bu yomon oqibatga olib keladi. Farzandga eng yaxshi hamroh ota-onasi va sog‘lom muhit bo‘lishi kerak. Yosh bola nega havo bunaqa, nega quyosh chiqadi yoki nega o‘t o‘sadi, degan oddiy savollarni beradi. Bir kuni o‘sha savollarni bermay qo‘yishi mumkin. Siz borgan sari uning hayotidan surilib, chiqib borasiz. Sizning o‘rningizni telefon egallashiga tayyormisiz? Har doim bolangizga telefon berganingizda, shu savolni o‘zingizga bering. Eng muhim yechim – muloqot. Agar bola savollariga ota-onadan javob ola bilsa, telefon uning uchun yordamchi vosita bo‘ladi, xolos.

Muyassar Ibrohimova: – *Vaqt ajratib kelganingiz va mazmunli suhbat uchun hammangizga rahmat.*

JAHON AYVONIDA

5000 DOLLARLIK VA’DA

AQSH prezidenti Donald Tramp noyabrdagi saylovlarda respublikachilar Kongress ustidan nazoratni o‘rnatsa, har bir voyaga yetgan fuqaroga 5 ming dollardan pul tarqatishini ma’lum qildi. “Reuters” agentligining yozishicha, u bu haqda Dallasda bo‘lib o‘tgan partiya qurultoyida ta’kidlagan.



Mazkur mablag‘dan foydalanishning yagona sharti – uni faqat mamlakat ichkarisida sarflashdan iborat. To‘lovlarning umumiy qiymati 1 trillion dollardan oshishi aytilmoqda, biroq moliyalashtirish manbasi noma’lum.

IPHONE 18 PRO TAQDIMOTI

“Apple” kompaniyasi iPhone 18 Pro va Pro Max smartfonlari, AirPods 5 hamda yangi avlod “Apple Watch” soatlarini namoyish etdi.



Flagman modellar tarixda ilk bor o‘zgaruvchan diafragmaga ega 48 megapikselli Fusion kamerasi bilan ta’minlangan bo‘lib, foydalanuvchilarga tasvir sozlamalarini qo‘lda nazorat qilish hamda fotosurat aslligini tasdiqlovchi “Apple Reference Image” tizimi taqdim etilgan.


YASHASH UCHUN QULAY DAVLATLAR

“Euronews” xabariga ko‘ra, yashash va ko‘chib o‘tish bo‘yicha 2026-yilgi “Rumavi” global indeksi e’lon qilindi.



Jami 192 davlat 24 ta ko‘rsatkich asosida baholangan reytingda Estoniya – bank infratuzilmasi hamda mulk huquqi kafolatlari evaziga yetakchilik qilmoqda. Kuchli o‘nlikdan Singapur, Malayziya, Portugaliya, Tayvan, Litva, Gonkong, Sent-Kits va Nevis, Chexiya hamda Malta joy oldi.

FASTFUD REKLAMASIGA CHEKLOV



Qozog‘istonda bolalarga mo‘ljallangan fastfud, shirin ichimliklar hamda tarkibida shakar, tuz va yog‘ miqdori yuqori bo‘lgan mahsulotlar reklamasi cheklanishi mumkin.

“KazTAG” agentligining xabar berishicha, mamlakat Sog‘liqni saqlash vazirligi zararli yeguliklar targ‘ibotini televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va tashqi reklama vositalarida cheklash bo‘yicha qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqdi.

MING YILLIK MASALAGA YECHIM

“OpenAI” kompaniyasining hali ommaga taqdim etilmagan sun’iy intellekt



modeli 1 million dollarlik “Ming yillik muammolari”dan biri – Navye-Stoks tenglamasini yechdi.

Olimlarning ta’kidlashicha, suyuqlik va gazlar harakatini ifodalovchi ushbu formulalar ma’lum sharoitlarda cheksiz tezlikka erishib, jismoniy voqelikni to‘g‘ri aks ettirmay qo‘yadi. Biroq korporatsiya mazkur matematik kashfiyoti uchun mukofot puliga da’vogarlik qilmoqchi emas.

EYFEL YANA OCHILDI


Parijdagi Eyfel minorasi Hindistonning “BAPS” diniy delegatsiyasi tashrifi vaqtida ayol xodimlarning chetlatilishi ortidan kelib chiqqan noroziliklardan so‘ng qayta ochildi.

“Associated Press” xabariga ko‘ra, rahbariyatning xotin-qizlarga mehmonlar bilan muloqot qilmaslik bo‘yicha bergan ko‘rsatmasi ishchilarning bir kunlik ish tashlashiga sabab bo‘lgan.

BONG



CHO‘LPON HIMOYAGA MUHTOJMI?



Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani nafaqat o‘zbek romanchiligi cho‘qqilaridan biri, balki millat ruhiyati, tarixiy fojiasi va tilining betakror nafosati mujassam bo‘lgan muqaddas merosdir. Cho‘lpon nasri oddiy bayon emas; unda har bir so‘z, har bir tashbeh shoirona jilolanadi, o‘zbekning milliy turmushi, etnografiyasi va nafasi ufurib turadi. Shu bois, uni boshqa tilga o‘girish tarjimondan faqat til bilishni emas, balki ulkan iste’dod, chuqur tarixiy-etnografik bilim va, eng asosiysi, yuksak mas’uliyatni talab qiladi.

Yaqinda “Kitob sayyorasi” nashriyotida Rizo Ahmad tarjimasida “Kecha va kunduz” romanining rus tilidagi nashri chop etilganini ko‘rib, dastlab chin dildan quvondik: nihoyat, buyuk adibimizning o‘lmas asari keng rusiyzabon o‘quvchi ommaga taqdim etilibdi! Ammo kitobni varaqlab, tarjima bilan tanishgach, quvonch izsiz ketib, o‘rnini buyuk asar boshiga tushgan sho‘rishdan iztirob va alam, ulug‘ adib ruhi oldida xijolat hissi egalladi. Chunki qo‘limizda romanning tarjimasi emas... balki Cho‘lpon matni ustidagi “oshkora qotillik”dan so‘zlovchi ashyoviy dalil turardi.

Kitobni o‘qib, tabiiy va haqli bir savol tug‘iladi: muhtaram tarjimon o‘zbek milliy turmushidan, islomiy tushunchalardan va hatto o‘zi tarjima qilayotgan rus tilining qoidalaridan shu qadar bexabar ekan, buyuk Cho‘lpon asari tarjimasiga qo‘l urishga qanday jur’at qildi, qanday haddi sig‘di?

Quruq gap bo‘lmasligi uchun kitobning ilk sahifalaridanoq ko‘zga tashlanadigan, o‘quvchini dahshatga soluvchi bir nechta “shohona” misollarga nazar tashlaylik.

Hammaga ma’lum, roman muqaddimasida Cho‘lpon tabiatdagi uyg‘onishni, bahor kelishini shunday tasvirlaydi: “Bultur ekilib, ko‘p qoshlarni qoraytirgan o‘sma ildizidan yana bosh ko‘tarib chiqdi... Muloyim qo‘llarda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat!” Bu parcha – o‘zbek nasridagi eng nafis va betakror metaforalardan biri. Cho‘lpon qizlarning qoshlarini “ko‘zlarning supasi”ga, o‘sma suvini esa o‘sha supada erkalanib yotgan go‘zallikka mengzaydi. Xo‘sh, tarjimon buni rus tiliga qanday o‘girgan? Marhamat, 4-sahifani o‘qing: “Посаженный в прошлом году росток, снова вознесся к небу... Как же приятно этому ростку, умываяс каплями влаги под мягкими руками водных струй, прислонится к зеркалной глади!” O‘sma qani? “Ko‘zlarning supasi” qani? Ming yillardan beri boy-u yo‘qsul o‘zbek hovlisida jillaqursa barkashdek joyda ko‘karib turadigan “bu ko‘kat”ni, nahotki, shunchaki “росток” deb o‘girib bo‘lsa?! Nega bunday bo‘ldi? Nahotki, tarjimon “o‘sma”ning nima ekanini bilmasa?! Necha zamonlardan beri o‘zbek qizlari – onalarimiz, momolarimiz, undan naridagilar qoshlariga qo‘yib kelgan o‘smani shunchaki suv bo‘yida o‘sgan qandaydir “росток” (nihol)ga alishtirib bo‘larkanmi?! O‘sma yo‘q bo‘lgach, “ko‘zlarning supasi” o‘rnida qayoqdandir “ko‘lning suvi” (зеркалная глад) paydo bo‘lgan. Xullas, oqibatda Cho‘lponning tashbehi yo‘q qilingan, qosh ham, ko‘z ham, o‘sma ham butunlay g‘oyib bo‘lib, o‘rniga tamom boshqa obraz yaratilgan.

Darvoqe, bundan ham oldin, shu sahifadagi mashhur “Hamal keldi – amal keldi” maqoli “Весна пришла, удача пришла” deb o‘girilgan. Axir, Cho‘lpon “весна” demoqchi bo‘lganida, “bahor” yo “ko‘klam” deb qo‘ya qolmasmidi?! Badiiy tarjimada “realiya” deb ataluvchi aslan beriluvchi so‘zlar ham bor-ku, “hamal” ham shunday so‘z, axir. Xo‘p, unisi ham mayli, rusiyzabon o‘quvchi romanning ilk jumlasini “bahor keldi – omad keldi” deb o‘qisa, hayron bo‘lib qolmaydimi? Tagiga “xalq maqoli” deb yozilganini ko‘rib, mag‘zini chaqishga behuda kirishib ketsa ham, mumkin. Holbuki, asliyatda gap “amal” haqida – tabiatda jonlanish, harakat boshlangani haqida. Buni “удача”ga almashtirish uchun kishi milliylikdan qanchalik bexabar bo‘lishi kerak!

Romandagi markaziy personajlardan biri – mutaassib Razzoq so‘fi. Cho‘lpon uning xarakterini ochish uchun o‘rni bilan diniy istilohlardan ham, tabiiyki, foydalanadi. Umuman ham, islomiy e’tiqod kishilari bo‘lmish personajlar tilida bunday so‘zlar bo‘lishi tabiiy. Afsus, tarjimada ular aksar kulgili bir tarzda o‘girilganki, ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

Akasi so‘fini qishloqqa ketishga da’vat qilib: “O‘lim – haq! O‘lar vaqtda bir-birimizdan yiroq tushib... o‘lmaylik” deydi. Buni tarjimon: “Толко смерт права! Когда она придет, не будем в отдалении...” (19-bet) deb o‘giradi. “O‘lim – haq”, ya’ni, o‘lim muqarrar degan ilohiy qonuniyatni ifodalovchi e’tiqodiy jumla rus tilida “Faqat o‘lim to‘g‘ri/haqli!” deb o‘qiladi. “Haq” so‘zining ma’nosini bilmaslik oqibatimi bu? “Haq” so‘zini-ya!

Xolmat oshiq O‘lmasjonga dalda berib: “Xudodan tilab turing, “noumid shayton” degan gap bor...” deydi. Ya’ni, umidingni uzma, faqat shaytongina noumid bo‘ladi, demoqchi. Tarjimada bu gap: “...говорят: “не имеющий мечту ест шайтан”...” (43-bet) ko‘rinishiga kelgan. Ya’ni, “noumid” so‘zi “orzusi yo‘q” (не имеющий мечту) deb tarjima qilingan va jumla mantig‘i mutlaqo o‘zgarib ketgan. Islomiy e’tiqod umidsizlikni qoralaydi, buni shaytondan deb biladi. Tarjimada esa mazkur qonuniyat maqomidagi e’tiqodiy tushuncha “orzusi yo‘q – shayton” shaklini olib, mantig‘i va maqomidan ayriladi, uydirmaga aylanadi. Bunaqa kulgili va mantiqsiz uydirmani qanday qilib kitobga kiritish mumkin?

Cho‘lpon ta’rifida: “O‘z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz... bo‘lishini istagan Razzoq so‘fi...” haqida so‘z boradi. Tarjimada esa so‘fi o‘quvchiga: “...мечтавший, чтобы его дом был таким же тихим, как кладбище, молчаливым, как монастыр...” deb taqdim etiladi. Qarang, butun umri masjid-u xonaqohda o‘tib kelayotgan so‘fi o‘z uyi “monastir”dek bo‘lishini orzu qilarmish! Axir, realiya o‘laroq tarjimasiz “ханака” deb berish ham mumkin yoki, juda bo‘lmasa, “обител” so‘zi turganda, Cho‘lponning qahramonini xristian mohiyatiga ko‘chirish qaysi mantiqqa sig‘adi?

Tarjimonning milliy muloqot odobi va til me’yorlarini his qilmasligi ham qator jiddiy qusurlarga olib kelgan. Jumladan:

Xolmat bilan O‘lmasjon suhbatida Zebi haqida gap ketar ekan, “Xaridori ham ko‘pdir?” (ya’ni, sovchilari, so‘rab keluvchilari ko‘pdir) degan savol beriladi. Tarjimon buni ruschaga shunday ag‘dargan: “У неё небос много покупателей?” O‘zbek qizini – endigina balog‘at davriga qadam qo‘ygan Zebini bozorda pullanadigan buyumdek “покупатели” (sotib oluvchilari) bor deb tasvirlash sho‘ro davrida singdirilgan bizdagi ayollarga munosabat haqidagi gaplar ta’sirimikan, bilmadim?! Nima bo‘lganda ham, hozirda buni o‘tmishdagi milliy turmushimiz, qadriyatlarimiz ustidan kulish, deb bilaman.

Qizlar hovlida o‘ynab quvlashayotganlari ustiga kirib kelgan so‘fi jahl ustida ularni “Qanjiqlar!” deb haqorat qiladi. Albatta, bu og‘ir so‘z, zero, Razzoq so‘fi qizlarni “urg‘ochi itlar” deb atadi. Lekin tarjimada so‘fi “Potaskuxi!” deya hayqiradi. “Потаскуха” – rus tilida fohisha, buzuq ayol deganidir! Har qancha mutaassib bo‘lsa-da, o‘zbek xonadonida otaning qizi va uning dugonasiga qarata “fohishalar” deb hayqirishi – qahramonga nisbatan tuhmatdan boshqa narsa emas. Ayniqsa, so‘fining bunday deyishi mutlaqo mumkin emas, zero, bu o‘zini fahshga botgan deb tan olish bo‘ladi. Qiziga “Ovozini nomahramga eshittirsa rozi emasman!” deya shart qo‘ygan so‘fi o‘la qolsa bunday demas?!

Tarjimaning tili shu qadar g‘aliz, qovushmagan va sayozki, bu rus mumtoz tarjima maktabi tugul, oddiy maktab inshosi darajasidan ham past. Kitob sahifalarida imlo va punktuatsion xatolar, uslubiy g‘alizliklar qalashib yotibdiki, ulardan ayrimlarini sanab (avval kitobdagi shakli, tiredan so‘ng esa to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib) o‘tamiz: своей остроумием – своим остроумием” (11-bet); не дал ему слова – не дал ему сказат/договорит (18-bet); эти тревога и волнение – эта тревога и волнение/эти тревоги и волнения (20-bet) знает толко что трудится – знает только одно: трудится и трудится (35-bet). Shuningdek, tinish belgilariga ham yetarli e’tibor qilinmagan: Не останавливаяс пошел – Не останавливаяс, пошёл (18-bet); Затем повернувшис назад – Затем, повернувшис назад (18-bet); Говорит об этом сыну, они вместе решают – Говорит об этом сыну, и они вместе решают (36-bet). Tarjimada не довлеет к дехканскому труду (16-bet) jumlasidagi kabi mantiqan noo‘rin yoki доспочтенная жена эшона (20-bet) birikmasidagi kabi xato yozib ishlatish tufayli mazmuniy g‘alizliklar yuzaga kelgan o‘rinlar ham talaygina. Matnda “лисо же улыбалос”, “рот был открыт с любовю к собеседнику”, “затрудняюс без людей, без трудовых рук”, “мне чалму и халат толко надет”, “солидный орошаемый кусок”, “Найдем еще землисы отсюда-оттуда” singari rus tili uslubiyatida hatto personaj nutqida ham g‘oyat g‘aliz sanaluvchi sintaktik qurilmalar ham anchagina. Oxirgi misollar kitobning bittagina sahifasidan (18-bet) olingani aytilsa, da’vomiz quruq emasligi anglashiladi. Afsuski, tarjima tilidagi kamchiliklarga doir bu kabi misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin, bular, hech shubhasiz, rusiyzabon o‘quvchining tishiga toshdek tegadi. Qiziq, rusiyzabon o‘quvchi shunda Cho‘lpondan gina qilarmikin yo Rizo Ahmaddan?!

Hozirda o‘zbek adabiyotini jahon sahnasiga olib chiqish, Qodiriy, Fitrat, Cho‘lponlarni dunyoga tanitish haqida minbarlardan turib ko‘p bong uramiz. Bu juda zarur. Faqat, agar dunyoga Cho‘lponni mana shu tarzda tanitsak, bu faxr emas, ulkan isnod keltiradi. Cho‘lponni bunday “tarjima”lar orqali o‘qigan rusiyzabon kitobxon uni nari borsa, o‘rtachadan pastroq iqtidorli, tili qashshoq, uslubi ham pala-partish – jadidlar qatorida bo‘lgani-yu qatag‘on qilingani uchungina ko‘tar-ko‘tar qilinayotgan bir yozuvchi, deb o‘ylashi tayin.

Aytish kerakki, bu o‘rinda birgina tarjimonni ayblash adolatdan emas, sirasi, eng katta iddaolar kitobni chop etgan “Kitob sayyorasi” nashriyotiga. Bu kitobning muharriri haqiqatan ham bormi yo shunchaki xo‘jako‘rsinga ismi-sharifi tirkab qo‘yilganmi? Musahhihlar-chi? Bormi yo tejamkorlik sabab tarjimon matniga ishonilgan, uni “begona ko‘z” bilan ko‘rib chiqishga qunt qilinmaganmi? Romanning tarjimasi nashr oldidan birorta mutaxassis, tarjimashunos yoki cho‘lponshunos ko‘rigidan o‘tganmi? Yoki hozirda pulini to‘lasa yoki sotib pulini tiklash mumkin bo‘lsayoq, milliy adabiyotning muqaddas asarlarini ham xohlagan ko‘yga solib bosib chiqaraverish mumkinmi?!

Har qancha og‘ir bo‘lsa ham aytaman: bu nashr – adabiy, madaniy va ma’naviy xatolik, Cho‘lpon nomiga, uning ruhiga nisbatan behurmatlikdir. Bunga jim qarab turib bo‘lmaydi. Zero, bugunda hayot bo‘lgan biron yozuvchining asari shu ahvolda chop etilsa, mualliflik huquqi masalasi o‘rtaga tushadi: ijodkorlik sha’ni himoyasi, ma’naviy zarar haqida gapiriladi. Cho‘lponning ijodkorlik sha’ni, mualliflik huquqi, manfaatlari-chi? Ularni kim himoya qiladi? Cho‘lponni ko‘p yillardan beri o‘rganib kelayotgan odam sifatida ishonchim komilki, u mutasaddi tashkilotlardan ushbu nashrni zudlik bilan nazoratga olish, uning tarqatilishini to‘xtatishni so‘ragan, talab qilgan bo‘lur edi. Va u har jihatdan haq bo‘lardi, chunki bundayin tahqir va mazaxga hech kim munosib emas.

Dilmurod QURONOV,
filologiya fanlari
doktori

OYDINLAR

OLIMLAR ALPOMISHI

Kuni kecha Oliy Majlis Senati lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qonunni ma’qullab, ko‘rib chiqish uchun Prezidentga yubordi. Hujjatda amaldagi 26 harf va 3 ta birikma o‘rniga 28 harf hamda bitta apostrofdan iborat tizimga o‘tish ko‘zda tutilgan.

Ushbu islohotlar jadidlarni ham o‘ylantirgani, ular bu yo‘lda jonkuyarlik bilan faoliyat olib borgani ma’lum. “O‘zbek tilining akademik grammatikasi”, “O‘rta Osiyo turklarining yangi alifbosi”, “O‘zbek tilining tovushlari”, “Lotin asosida tuzilgan yangi alifbo loyihasi” kabi maqola va nutqlari bilan maydonga chiqqan G‘ozi Olim Yunusov alohida o‘ringa ega.

“Ko‘pgina kishilar G‘ozi Olim bilan G‘ozi Yunus (Ishchi)ni farqlashmaydi. Sababi, 1919-yil birinchi yarmigacha har ikkala ijodkor o‘z asarlarini “G‘ozi Yunus” taxallasi bilan e’lon qilishgan. Jurnalist va shoir G‘ozi Yunus 1919-yilda “Ishtirokiyun” gazetasi orqali murojaat qilgach, olim G‘ozi Yunus matbuotda “G‘ozi Olim” imzosini qo‘llay boshladi”.

Ushbu parcha atoqli jadidshunos olim Sirojiddin Ahmadning yangi chop etilgan “G‘ozi Olim” risolasidan olingan. Bu ikki ma’rifatparvarning yo‘li – jadidlik, ko‘zlagan manzili – hurriyat edi; afsuski, ikkisi ham aro yo‘lda qatag‘on o‘pqoniga tortildi. Biri adabiyot, biri ilm vositasida millatni uyg‘otishga uringan ziyolilarga oqibatda bosqinchilar tomonidan “xalq dushmani” tamg‘asi bosildi. Shu jihatdan, ularning nafaqat ismi sharifi, balki maslagi va taqdiri ham o‘xshash.

Har holda badiiy so‘z va so‘z kishilari el-yurtga bir qadar taniqli bo‘ladi, ularning hayoti va faoliyatini o‘rganishga ham qiziqish katta. Shu ma’noda G‘ozi Yunus – Ishchi taqdiri ma’lum ma’noda xalqqa qaytarilgan. Biroq G‘ozi Olim shaxsiyati, faoliyati va asarlari faqat tor doirada ma’lum bo‘lib, yaxlit holda o‘quvchilar ommasiga taqdim etilmagan edi.



1929 yil Til-imlo konferensiyasi hay’ati rayosati

Mana shu bo‘shliqni to‘ldirish yo‘lida zakiy va mehnatkash, fidoyi va rostgo‘y, matonatli va xolis olim Sirojiddin Ahmad katta qadam tashladi. “G‘ozi Olim” kitobining qimmatini oshiruvchi yana bir jihat shundaki, unda millat oydinining ijtimoiy-ilmiy yo‘liga nazar tashlash bilan birga olimning asarlari ilk bor o‘quvchilar ommasiga taqdim qilingan. Ayniqsa, “O‘zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba” asarining to‘liq shakli faksimile shaklida berilgani kelgusida bu borada izlanish olib boruvchi folklorshunoslar, tilshunoslar, talabalar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

G‘ozi Olim mustamlaka davri tazyiqiga qaramay xalqning lug‘at boyligini, adabiyotini, imlosini, davlatchilik tarixini sof ilmiy yo‘l bilan, akademik halollik asosida tiklashga harakat qildi. Sovet ma’murlarining olimga tish qayraganidan bilish mumkinki, u o‘z maqsadiga ma’lum darajada erishgan ham.


Mazkur kitobdagi ma’lumotlar asosida 45 yoshida otuvga hukm qilingan G‘ozi Olim hayotining muhim sanalarini keltirib o‘tamiz:

G‘ozi Mahamat Yunus o‘g‘li 1893-yil 10-aprelda tug‘ildi. Istanbul oliy pedagogika institutida va “Al-Azhar” madrasasida o‘qidi. 1914-yil iyul oyida Toshkentga qaytib kelib, Volga-Kama tijorat bankida ish boshladi. 1917-yil Turkiston Muxtoriyatida “Ulamo” jamiyati vakili sifatida ishtirok etdi. 1918-yil Toshkentda “Turk o‘chog‘i” uyushmasiga asos soldi.

1919–1937-yillarda qator vazifalarda, xususan, Turkiston avtonom respublikasi Musbyuroda tashkiliy qo‘mita mudiri, “Tong” jurnali muharriri, Turkiston maorif komissarligi “Bilim hay’ati” xodimi, O‘zbekiston Xalq maorif komissarligi Fan bo‘limi ilmiy kotibi, “O‘zbeklarni o‘rganish qo‘mitasi” raisi, Samarqand Oliy pedagogika instituti o‘qituvchisi, kafedra mudiri, O‘zbekiston ilmiy tekshirish instituti, Madaniy qurilish ilmiy tekshirish instituti xodimi, Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, Toshkent kechki pedagogika institutida o‘qituvchi bo‘lib xizmat qilgan.

1930-yilda professor unvoni berildi.

1937-yil 25-aprelda NKVD tomonidan hibsga olindi. 1938-yil 4-oktyabrda oliy jazo qo‘llanildi. 1957-yilda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi tomonidan reablitatsiya qilindi.



* * *

G‘ozi Olim “Alpomish” dostonini yozib olish va o‘rganish bo‘yicha birinchilardan bo‘lib ma’naviy jasorat ko‘rsatgan edi. O‘zi ham qahramonlarcha faoliyat yuritdi. Afsuski, Surhayil maston kabilar uni mahv etdi.

Nihoyat, bugun uning pok nomi xalqqa to‘la-to‘kis qaytarildi. Buning uchun zahmatkash oydinlarimizga, xususan, hurmatli domlamiz Sirojiddin Ahmadga tashakkur aytamiz!

Kitobni nashr etishda beg‘araz homiylik qilgan Bahodir Husanovga ham minnatdorlik bildiramiz.

Otabek BAXTIYOR

SHUKRONA

IBRAT ARMONLARI USHALMOQDA





Har bir xalqning o‘tmishi va kelajagini bog‘lab turuvchi ma’naviy ko‘priklar bo‘ladi. O‘zbek xalqining buyuk ma’rifatparvar farzandi, olim, sayyoh va noshir Is’hoqxon To‘ra Ibrat ana shunday ko‘prik solgan ulug‘ zotdir. U serqirra faoliyati va o‘lmas asarlari orqali millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga, ilm-fan va jahon taraqqiyotiga ergashishga chaqirdi.

Alloma tug‘ilib o‘sgan Namangan zaminida uning ko‘plab asarlarida, jumladan, “Mezon uz-zamon”da bayon qilingan millat kelajagi bilan bog‘liq buyuk armonlari to‘laqonli ro‘yobga chiqmoqda.

TA’LIM

Ibrat yoshlarning faqat diniy bilimlar bilan cheklanib qolmay, dunyoviy fanlarni egallashini asosiy maqsadlardan biri deb bilgan. U “Tarixi madaniyat” asarida yoshlarning uzoq yurtlarga borib musofirlik mashaqqatini tortmasdan, o‘z shahrida xotirjam ta’lim olishi muhimligini ta’kidlab: “Oliy qurslar o‘z shaharlarimizda ham ochilsa, ko‘broq talabalar kirishi umidlikdur”, deya orzu qilgan edi.

Bugun viloyatda 783 ta umumta’lim maktabi bor. Shuningdek, 8 ta oliy o‘quv yurti (4 ta davlat va 4 ta nodavlat) samarali faoliyat yuritmoqda. Ulardan biri – To‘raqo‘rg‘ondagi Namangan davlat chet tillari institutiga alloma nomi berilgan.

Olim “Lug‘ati sittati alsina” (“Olti tilli lug‘at”) asarini yaratish orqali yoshlarni jahon tillarini bilishga undagan. “Har bir lison safar ahlina yuz oltun barobarida ishladi”, degan so‘zlari til bilishning qiymatini ko‘rsatadi. Bugungi kunda Namangan maktablarida ingliz, nemis va fransuz tili o‘qitilmoqda. Ta’lim davlat tilidan tashqari rus, tojik va qirg‘iz tillarida ham olib borilmoqda.



> **Ibrat domlaning el-yurtimiz taraqqiyoti yo‘lidagi fidokorona xizmatlari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun ibrat namunasi bo‘lib qolmoqda. Yoshlarimiz shunga munosib, yurt koriga yaraydigan insonlar bo‘lib voyaga yetishi kerak.**
>
> **Shavkat MIRZIYOYEV**

SANOAT

Ibrat xomashyoni qayta ishlamasdan eksport qilishni millatning iqtisodiy qaramligi sifatida keskin qoralagan. “Tarixi madaniyat” asarida mahalliy resurslarni sanab: “Bularni ishlatilsa, shaharlarimiz katta shaharlarga qo‘shulub, alar qatorida hisob bo‘lur erdi”, deya sanoatlashtirishni orzu qilgan edi.

Hozirgi kunda Namangan viloyatida jami 34 mingga yaqin korxona va tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. 2026-yilning birinchi choragida viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 279,0 milliard so‘mga yetib, sanoatning jadal rivojlanishi ta’minlandi. To‘qimachilik, mashinasozlik va kimyo sanoati mahsulotlari bugun dunyo bozorlariga eksport qilinmoqda.

QISHLOQ XO‘JALIGI

Ibrat o‘z davrida dehqonlarning faqat paxta yetishtirishga o‘tib ketgani va oziq-ovqat ekinlarini unutganini “Tarixi Farg‘ona” asarida tanqid qilgan: “Paxta ziroat va tijoratiga o‘rgangan kishilar qarz daryosiga g‘arq bo‘lganlarini mushohada qilib... avqoti ekmakka tushdilar”. Bugungi kunda Namangan viloyatida mustaqil faoliyat yuritayotgan 10 ming 865 ta fermer xo‘jaligi bor. 2026-yilning dastlabki oylarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 065,6 milliard so‘mni tashkil etib, meva, sabzavot va chorvachilik yo‘nalishlarida xilma-xillik hamda oziq-ovqat xavfsizligi to‘liq ta’minlanmoqda.

MAG‘RIB VA MASHRIQ TAFOVUTI

Ibrat G‘arb va Sharqning yirik shaharlarida ko‘rgan ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy shaharsozlik madaniyati o‘z vatanida bo‘lishini niyat qilgan. U madaniy shaharlarni ta’riflab: “Otash kemalar va foyizlar va ko‘nkalar elektr ilan barpo bo‘lsa.., tilifungramolar va shaharlar ozoda... bo‘lsa”, degan edi.

Hozirgi kunda Namangan viloyatida qurilish ishlari hajmi 3 005,8 milliard so‘mga yetdi. Iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish uchun viloyatga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi esa 17 869,4 milliard so‘mni tashkil qilmoqda. Yangi Namangan shahri va muhtasham turar-joy majmualari bu orzuning yorqin ko‘rinishidir.

BUNYODKORLIK VA TASHABBUSLAR MARKAZI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyati va uning mehnatkash xalqini ta’riflar ekan, bu zaminni “tadbirkorlar, ishbilarmonlar va hunarmandlar yurti, bunyodkorlik va tashabbuslar markazi” sifatida alohida e’tirof etgan edi. Prezidentimizning bu ta’rifi Ibrat domlaning bundan bir asr muqaddam viloyat sanoati, ma’rifati va infratuzilmasi borasida qilgan orzulari bugungi mustaqil davlatimiz siyosati bilan to‘liq uyg‘unlashib ketganini anglatadi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi keng nishonlanayotgan shukuhli kunlarda bir haqiqat yaqqol namoyon bo‘lmoqda: Ibratning “avlodlaringizni kelajak zamon ilmi bilan tarbiyalang” degan o‘giti Namangan maktablari-yu oliygohlarida, keng ko‘lamli islohotlar maydonida real haqiqatga aylandi. Millatimiz tom ma’noda mustaqil va buyuk taraqqiyot yo‘liga chiqdi.

Otabek MAXSUDJONOV,
Is’hoqxon Ibrat – Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

TARADDUD

Ochiq osmondagi o‘zbek “Hilol”i

Kino – millatning o‘zini, uning kechmishi, ruhiyati va bugunini dunyoga tanitishning ta’sirchan vositalaridan biri. Shu ma’noda, Osiyo kinematografiyasining muhim maydonlaridan sanaladigan Pusan xalqaro kinofestivali nafaqat yangi filmlar, balki yangi rejissyorlar, yangi qarashlar va turli madaniy tajribalar uchrashadigan makondir. Bu yilgi festival dasturida o‘zbek kinosi ham bor.

Pusan xalqaro kinofestivali (BIFF) o‘zining 31-festival dasturini e’lon qildi. Tanlovda Osiyoning turli mamlakatlaridan 14 ta film ishtirok etadi. Ular orasida Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Tayvan, Eron, Indoneziya va O‘zbekiston kinoijodkorlarining yangi asarlari bor. Xususan, o‘zbek rejissyori Botir Abdurahmonovning “Hilol” filmi ham tanlovda ishtirok etadi. Kartina festivalda jahon premyerasini o‘tkazadi. Xalqaro kinofestival 6–15-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tadi. 21-Osiyo kontent va kino bozori (ACFM) esa 10–13-oktyabr kunlari tashkil etiladi.

14 FILM – 14 XIL NIGOH

O‘tgan yili yo‘lga qo‘yilgan tanlov dasturi Osiyo kinosidagi yangi tendensiyalarni kashf etishga qaratilgan. Bu yilgi 14 ta film ham mavzu va uslub jihatidan xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Yapon rejissyori Nanako Xirosening “Ikki oshiq o‘rtasida” dramasi sevgi uchburchagi haqida hikoya qiladi. Xirose taniqli rejissyor Xirokadzu Koreedaning shogirdi bo‘lib, 2018-yilda “Uning yo‘qolgan ismi” filmi bilan BIFFning New Currents tanlovida debyut qilgan. Eron kinosi esa jahon kinematografiyasida o‘z o‘rniga ega rejissyor Majid Majidiyning “Peshindan keyingi tamaddi” filmi bilan namoyon bo‘ladi. So‘nggi 35 yil davomida uning filmlari Kann, Berlin va Venetsiya kinofestivallarida namoyish etilgan. Majidiy mazkur film bilan Pusan festivali va Janubiy Koreyaga ilk bor tashrif buyuradi. Indoneziyalik rejissyor Yosep Angi Noyenning “Dengiz uning ismini aytadi” siyosiy dramasi ham tanlovdan o‘rin olgan. Bosh rollarni Reza Rahadian va Dian Sastrovardoyo ijro etgan. Noyenning Lokarno kinofestivalida mukofotlangan “Fantastika ilmi” va “Gaspar bilan 24 soat” filmlari ham kino muxlislariga yaxshi tanish.

Shuningdek, festivalda xitoylik Chen Sziven “Avlodlar” filmi bilan qatnashsa, Gu Yuning “Yolg‘izlikning ilk ta’mi” nomli oilaviy dramasi “Manzara” trilogiyasining yakuniy qismi sifatida taqdim etiladi. Tanlovda Janubiy Koreya ham bir qator yangi asarlar bilan qatnashadi. Debyutant Lim Xayonning “Sohil hikoyalari” va Yom Kyubokning “Uzun tun” animatsion filmi shular jumlasidan.

“OSKAR” YO‘LI

Bu yilgi tanlovning eng muhim yangiliklaridan biri – Pusan mukofotining “Eng yaxshi film” nominatsiyasi g‘olibi “Oskar”ning “Eng yaxshi xalqaro to‘liq metrajli film” nominatsiyasida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritishi mumkin. Shu jihatdan, Pusan bugun nafaqat Osiyo kinematografiyasi, balki jahon kino jarayonining muhim maydonlaridan biri sifatida o‘z mavqeyini tobora mustahkamlab bormoqda.

OSIYO YAGONA EKRANDA

Festival dasturiga ko‘ra, Osiyoning turli mamlakatlaridan 23 ta to‘liq metrajli film mukofot uchun kurashadi. “Vision-Korea” va “Vision-Asia” yo‘nalishlariga bo‘lingan mazkur bo‘lim mustaqil kinoijodkorlarning asarlarini taqdim etadi. “Ikonalar” bo‘limida esa dunyoga mashhur rejissyorlarning 35 ta eng yangi filmi namoyish etiladi. Ular orasida Kann kinofestivali nomzodlari Kristian Munjiu, Andrey Zvyaginsev, Pavel Pavlikovskiy va Ryusuke Xamagutining filmlari ham bor. Berlin kinofestivalining “Oltin ayiq” mukofoti sohibi Ilker Chatakning “Sariq maktublar” filmi, Li Chan-donning “Mumkin bo‘lgan sevgi” asari va Xon San Suning “Ko‘zlarimni qayerga qo‘yay?” filmi ham dasturdan o‘rin olgan. Bu yil Pusan xalqaro kinofestivali uchun jami 246 ta film tanlab olingan. Bu o‘tgan yilgidan beshtaga ko‘p bo‘lib, pandemiyadan oldingi 2019-yildan buyon festivalning eng yirik dasturidir.

Festival Kim Chongvanning “Stol: kun va tun” filmining jahon premyerasi bilan ochiladi. Pusan kino markazining ochiq osmon ostidagi teatrida o‘tkaziladigan ochilish marosimi kino san’atining turli avlod vakillarini bir maydonga jamlaydi. Festival tomoshabinlariga qulaylik yaratish maqsadida payshanbadan yakshanbagacha eng gavjum kunlarda kunlik namoyishlar soni to‘rttadan beshtaga oshiriladi.

Pusan ekranida namoyish etiladigan 14 ta filmning har biri – alohida taqdir, alohida nigoh. Ular orasidagi bizning “Hilol” o‘zbek kinoijodkorlarining dunyo tomoshabini bilan yangi keng qamrovli muloqoti uchun muhim bosqich bo‘lishiga umid bog‘laymiz.

MUYASSAR tayyorladi.



Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 426
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 856
Lotin yozuvida – 11 570
Media kuzatuvchilar – 91 527
Buyurtma: G – 940
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI